

MA'RUZALAR MATNI

YoSh DAVRLARI PSIXOLOGIYASI FANINING VAZIFALARI VA TADQIQOT USULLARI.

ReJA:

1. Yoshlar psixologiyasi faniga kirish, fanning predmeti.
2. Yosh davrlar psixologiyasi faning printsiplari va tadqiqot usullari.
3. Hozirgi zamon yosh davrlari psixologiyasi fanining asosiy vazifalari.

Yosh davrlari psixologiyasi fanining mavzu baxsi turli yoshdagi odamlarning (bolalar, o`quvchilar, kattalar, erkaklar, ayollarning (ontogenezda) tug`ilgandan umrining oxirigacha) psixik rivojlanish jarayonini, shaxsning shakllanishi xamda o`zaro munosabati qonuniyatlarini urganishdan iboratdir. Yosh davrlari psixologiyasi insonda turli psixik jarayonlar rivojlanishining o`ziga xos xususiyatlarini, uning xar xil faoliyatini er va ayolning jinsiy tafovvutlarini, shuningdek inson shaxsining tarkib topishini ilmiy jixatdan tadqiq qiladi.

Inson ruxiyatining rivojlanish davrlarini aniqlash uchun, shu soxadagi ma`lumotlarni tuplash xam mazkur psixologiyaning mavzu baxsiga kiradi. Bolaning tug`ilishidan voyaga etgunicha xar tomonlama rivojlanishi, jamiyatning teng xukli a`zosi bulgunicha ulgayishi va shaxsining tarkib topishi muammolarini bularning psixologik mexanizmlarini aniqlash va sharxlash yosh davrlari psixologiyasi soxasining muxim jixatidir. Yosh davrlari psixologiyasi soxasi inson psixikasi faqat miqdor jixatidan emas, balki sifat jixatidan xam rivojlanishi, takomillashib borishi va o`zgarishi xakidagi metodologik koidaga amal qiladi.

Yosh davrlari psixologiyasi turli yoshdagi insonlarning psixik rivojlanishi, psixik xususiyatlari va ularning o`ziga xos omillari me`zonlari xamda mexanizmlari xakidagi fandır. Shuningdek u muayyan yoshdagi insonlarning o`ziga xos xususiyatlarini xam urganadi. Shuning uchun ijtimoiy xayotda ta`lim-tarbiyada, gruxlar xamda jamoalarda ,ishlab chikarish va oilaviy munosabatlarda yosh davrlari psixologiyasi aloxida urin to`tadi. Inson shaxsining tarkib topishi va bilish jarayonlarining rivojlanish muammosini inson psixikasining rivojlanishi qonunlarini xisobga olmay okilona xal qilib bumaydi. Shuning uchun xozir «inson omili» masalasi dolzarb mavzuga aylandi. Yosh davrlari psixologiyasi- inson psixikasining rivojlanish qonuniyatlari va xususiyatlari xamda shu rivojlanishning boskichlari to`g`risidagi fandır.

Yosh davrlari psixologiyasining asosiy vazifasi shaxsning kamol topishi qonuniyatlari va turli yosh davridagi odamlarda vujudga keladigan psixik faoliyat, xolat va shart sharoitlarning o`zaro ta`siri xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir.

Yosh davrlari psixologiyasi ana shu vazifalarni xal qilish Bilan Amaliy maksadlarni ruyobga chikaradi. Ta`lim tarbiya ishlarini takomillashtirishga yordam beradi. moddiy nematlar ishlab chikarishning samaradorligini oshirishga, millatlararo munosabatlarni yaxshilashga, shaxslararo muloqotni to`g`ri yo`naltirishga, jamoada ijobiy psixologik iklim yaratishga, uzok umr kurish sirlarini ochishga, oilaviy munosabatlarni mutsaxkamlashga ajralishlarning oldini olishga xizmat qiladi. Mazkur psixologiya fanining soxasi 19-asrning boshlarida vujudga kelgan lekin dastlabki ildizi kadimgi Yunon madaniyatiga borib taqaladi. Uning predmeti va qonuniyatlari to`g`risida jaxon psixologiyasi olamida turli karashlar va nazariyalar mavjud Ularning juda keng tarqalganlari biogenetik (V.Shtern), sotsiogenetik (K.Levin) bixevoritsik (e.Torndayk) psixoanalitik (Z.Freyd) nazariyalaridir. Shuningdek metodlarga asoslanib tadqiqotlar olib borgan olimlar xam juda kup. Ilmiy psixologik adabiyotlar emperik ma`lumotlar yosh davri psixologiyasining mutsakil Fan sifatida

ajralib chiqishiga kator omillar va xolatlar sabab bo'lgan degan xulosaga keldik. quyida ana shularni bayon kilamiz.

1. Barcha fanlar negiziga kirib borgan evolyutsiya goyasining (Ch. Darwin) inson psixikasining rivojlanish jarayonida urganish zarurligi.

2. Umuminsoniy, umumpsixik qonuniyatlar turli yoshdagi odamlar xatti xarakatini psixik xususiyatlarini va bolalarning o'sishiga biror bir faoliyatning ta'sirini aniqlash uchun etarli emasligini e'tirof etish.

3. Yosh davrlari psixologiyasi insonning (tug'ilganidan umrining oxirigacha) kamolati uchun metodologik va nazariy ahamiyatga ega ekanligi tan olingani.

4. Turli yoshdagi odamlar (maktabgacha yoshdagi bolalar, maktab o'quvchilari, urta va oliy ukuv yurtlari ning talabalari, ishchilar, xodimlar karyalar xar xil psixologik xususiyatlarga ega ekanligi sababli tarbiya, ishlab chikarish, ijtimoiy taminot muassasalari, etimxonalar, bolalar uyi, koloniyalar maxsus maktablar, internatlar, psixonevrologik dispanserlar, karyalar uylari, shifoxonalar, va boshka Lar)ning xodimlarida extiyojlar ortib borayotgani.

5. Tibbiyot Fani va uning tarmoklari rivojlanishi psixiatriya, psixo-nevralogiya, psixogigiena, neyroxirurgiya, sangigiena bolalar va kattalar patalogiyasi, genetika, oliy nerv faoliyati va xokozolar buyicha kopleks tadqiqotlarning vujudga kelishi, psixologiya biologiya, meditsina, sotsiologiya fanlarining xamkorligida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilishi.

6. Yuridika psixologiyasi va uning soxalari ijtimoiy xayotimizda sezilarli urin egalayotgani xamda yoshlar urtasida qonunbuzarlikning ortib boayotgani (sud ishi psixologiyasi, kriminal psixologiya, penitentsiar yoki axlok tuzatish mexnati psixologiyasi, voyaga etmagan qonunbuzarlar muammosi va jinoyatning oldini olish masalasi).

7. Amaliy psixologiyaning ijtimoiy siyosiy tus olayotgani va turmushning xar bir jabxasiga kiribborishi, shuningdek uz urnini tpayotgani (psixologik konsultatsiyalar maslaxatlar auto va sotsial treninglar, ishbilarmonlik uyinlari profesiogramma psixodiagnotsika va xokozolarga talab ortishi).

8. Psixologiya fani soxalarining inson ontogenezidagi uzgarishlariga doir, bilimlarga extiyoji va talabi ortayotgani (xarbiy, sport, savdo, mexnat, kosmik, injenerlik, ijod, aviatsiya psix`ologiyasiga aniq materiallar zarurligi).

9. Ekologiya muammolari, zoopsixologiya va etalogiya vazifalari, millatlararo munosabatlarini barqarorlashtirish, insonparvarlik goyalarini turmush tarziga olib kirish masalalarining dolzarbliigi (ekologiya va inson, kiyosiy psixologiya, shaxs psixologiyasi etnik psixologiya va xokozo)

10. Moddiy ishlab chikarishni kupaytirish, sanoatda va kishlok xujaligida kishilarning xakikiy xujayinlik tuygusini uygotish, akliy va jismoniy imkoniyatlarni kidirish, ishlab chikarish samaradorligini oshirish, inson-inson inson-texnika, er-inson, inson-iklim, munosabatlarini izchil urganish zarurligi.

11. Oilaviy munosabatlarni yaxshilash, ajralishlarning oldini olish

Inok oila yaratish yoshlarni turmushga tayyorlash, uz xoliga kasd qilish xollarini bartaraf etish, oilada teng xukuklilikni karor toptirish va bolalar tarbiyasini yaxshilash vazifalari.

12. Inson uzok umr kurishning sirlarini – gerontopsixologik qonuniyatlarni ochi shva targib qilish davlat muassasalarida psixologik bilimlarlardan uz urnida foydalanish, uzok umr kurishga zamin tayyorlash, karyalar pansionatlarida ularning ruxiyatiga mos munosabatda .odilona mulokatda bulish kerakligi yosh davri psixologiyasi rivojlantirishni takkoza etmokda.

Turli yosh xar xild jinsdagi insonlar psixikasining rivojlanishi, uzgarishi, vatanimizda yashayotgan barcha millat va elatlarning axlokiiy va jismoniy kamol topishiga ijobiy ta'sir qiladigan

omillar xamda shart-sharoitlarni bilish va ulardan unumli foydalanish hozir nixoyatda zarur bo`lib koldi.

Yosh davri psixologiyasi fanini urganish xam nazariy, xam Amaliy axamiyatga ega.

U xam bashka fanlar katorida rivojlandi, bunda eksperimental biologiya va genetika, meditsina sotsiologiya kabi fanlarning xizmati katta buldi. Yosh davri va diferentsial psixologiya Fani dialektikani printsiplariga, oliy nerv faoliyati qonunlariga diferentsial psixofiziologiya qonuniyatlariga, psixologlar tuplangan materiallarga tayanib, inson psixikasining kechishi, rivojlanishi, uzgarishi yuzasidan baxs yuritadi, Ijtimoiy turmushning barcha jabxalaridagi amaliy masalalarni xal qilishda faol ishtirok etadi.

Mazkur Fan soxasi o`zining predmeti xamda vazifasini umumiy psixologiyaning asosiy printsiplari va koidalariga tayangan xolda belgilaydi. Yosh davri psixologiyasi quyidagi printsiplarga rioya qiladi.

1. Dealektik materializm ta`limotiga binoan psixika yuksak darajada tashkil topgan materiyaning xususiyati va yoki miyaning maxsulidir. Odatda psixika tashki dunyoning sezgi organlari orqali insonning miyasiga bevosita ta`sir etishi asosida vujudga kelib, sezgi, idrok, tassavur, xotira tafakkur, nutk xayol kabi bilish jarayonlarida, shuningdek shaxsning xususiyatlari va xolatlarida diqqati xia-tuygusi va xarakter xislatlarida, kizikishi va extiyojlarida uz ifodasini topadi.

2. Psixikaning negizida miyaning reflektor faoliyati yotadi. Tashki dunyodan kirib keladigan kuzgatuvchilarga ichki yoki tashki biologik organlar javob reaksiyasini bildiradi. Bosh miya katta yarim sharlarida vujudga keladigan muvakkat nerv boglanishlarida vujudga keladigan muvakkat nerv boglanishlari psixik xodisalarning fiziologik asoslari xisoblanadi va ular tashki ta`sirning natijasida xosil bo`ladi. Bosh miya putslogida vujudga keladigan muvakkat nerv boglanishlari I P Pavlovning nerv jarayonlarining irradiatsiyasi, kontsentratsiyasi xamda o`zaro induktsiyasi qonunlari zamirida ruy beradi. Bu kounlar turli yusunda muvakkat boglanishlar, assotsiasiyalar kanday yuz berayotganini, kanday shart sharoitda tormzlanishini (kuzgalishni), muvakkat boglanishlarning yukolayotgani yoki paydo bulayotganini tushuntirish imkonini beradi.

Psixofiziologik qonuniyatlarga binoan miyaning funktsiyasi muvakkat nerv boglanishlarining birlanish mexanizmi xamda analizatorlar faoliyati mexanizmlari ta`sirida xosil bo`ladi. Yuqoridagi ta`limotga kura xar ikala mexanizm xayvonlarning tashki olamga munosabatini aks ettiradi. Shuning uchun psixik faoliyat vokelikni aks ettirishdan, oliy nerv faoliyatining tashki olamini timsollar sifatida ifodalanishdan iboratdir.

3. Psixikani tadkik etish insonning butun ongi faoliyatini - uning xam nazariy xam Amaliy xayot faoliyatini urganishdir. Odam zotining ongliligi uning turli tuman faoliyatida xatti-xarakatlarida namoyon bo`ladi. Inson shaxsi xar xil shakl va mazmunga ega bo`lgan nazariy xamda Amaliy faoliyatlarda tarkib topa boradi. Bunda muxit, irsiy belgilar, tarbiya asosiy omillar xisoblanadi.

Inson o`zi yashab turgan davrni, moddiy turmushni aks ettiradi, ijtimoiy-siyosiy muxit ta`siri otsida bilimlarini uzlashtirib boradi, ijtimoiylashadi, tarixan uzgaradi. Ontogenezda uning xis tuygulari, xarakteri, kobilyati, iqtidori, tafakkuri, extiyojlari, e`tikodlari, uni faollikka da`vat kiluvchi xarakat motivlari, itsaklari tilaklari, xoxishlari, poxzitsiyasi xam atsa-sekin uzgarib boradi.

4. Insoning bilish faoliyati rivojlanishi unga o`zini qurshab turgan borliqni yanada chuqurroq, to`g`riroq, to`larok va aniqrok aks ettirish imkoniyatini yaratadi va u borliqning asl moxiyatini, turli yusundagi o`zaro boglanishlari, murakkab munosabatlar va aloqalarni tabora aniqrok yoritadi. Shu Bilan birga mazkur jarayonlarda shakllanib kelayotgan insonning borliqqa, vokelikka, jismlarga, kishilarga va o`ziga munosabati vujudga keladi.

5. Inson ongining rivojlanishi uning tashki olamni faol aks ettirishda namoyon bo'ladi. Tarixiy materializm ta'limoticha, insoning moddiy turmushi, u xayot kechirayotgan tuzumning moddiy asosigina emas, balki uni qurshab olgan odamlarning turmush tarzlari, umuminsoniy qiyofalari, e'tikodlari, dunyoqarashlari, ijtimoiy vokalikka munosabatlari, intilishlari, faoliyatlari, ijod maxsullari va xatti-xarakterlarining majmuasidir.

6. Insonning borliqni aks ettirishi faol jarayondir. Ma'lumki, inson zotining rivojlanishi ob'ektiv borliqqa va o'ziga faol ta'sir kursatishida sodir bo'ladi. Bolaning katta yoshdagi kishilar tashkil qiladigan Amaliy faoliyati, masalan uyini, kuzatishi, mexnati, ukishi, adabiy asarni mutolaa qilishi xamda kizikishining barqarorlashuvi, iqtidorning takomillashishi va boshkalar uning psixik rivojlanishini ifodalaydi.

Kuzatish metodi. Yosh davri psixologiyasida bu metodning ob'ektiv (tashki) va sub'ektiv (o'zini-o'zi) kuzatish turlari bor. Inson psixikasida uzgarishlarni kuzatish uchun quyidagilar amalga oshiriladi: 1) kuzatishning maksadi, vazifasi belgilanadi; 2) kuzatiladigan ob'ekt tanlanadi; 3) sinaluvchining yoshi jinsi aniqlanadi; 4) tadqiqot utkazish vakti rejalashtiriladi; 5) kuzatish qancha davom etishi kat'iyalashtiriladi; 6) kuzatish insoning kaysi faoliyatida amalga oshirilishi tavsiya kilinadi; 7) kuzatishning shakli (yakka gurux, jamoa Bilan utkazilishi) tayinlanadi; 8) kuzatilganlarni kayd qilib borish vositalari (kundalik, suxbat daftari, kuzatish varakasi, magnitafon, videomagnitafon va boshkalar) taxt kilinadi.

Kuzatish orqali turli yoshdagi odamlarning diqqati, xis-tuygulari, nerv sistemasining tashki ifodalari, temperament xususiyatlari, imo-ishoralari, sezgirliigi, xulk-atvori, nutk faoliyati va xakaozalari urganiladi.

Suxbat metodi. Bu metod Bilan inson psixikasini urganishda suxbatning maksadi va vazifasi belgilanadi, uning bo'ekti va sub'ekti tanlanadi, mavzusi, utkaziladigan vakti aniqlanadi, yakka shaxslar, gurux va jamoa Bilan utkazish rejalashtiriladi, urganilayotgan narsa Bilan uzviy boglik savol-javob tartibi tayyorlanadi. Suxbatning bosh maksadi muayyan bir vaziyat yoki muammoni xal qilish jarayonida inson psixikasidagi uzgarishlarni urganishdir. Suxbat orqali turli yoshdagi odamlarning tafakkuri, akl-zakovati, xulk-atvori, kizikishi, ziyrakliigi, bilim saviyasi, e'tikodi, dunyoqarashi, irodasi to'g'risida ma'lumotlar olinadi.

Faoliyat maxsulini taxili qilish metodi. Inson xotirasi, tafakkuri, kobiliyati va xayolning xususiyatlarini aniqlash maksadida be metod yosh davri psixologiyasida keng qo'llanadi. Bolalar chizgan rasmlar, yasagan uyinchoklar, modellar, yozgan she'rlarni taxlil kili shorqali ularning mantikiy xotirasi, tafakkuri, texnik, badiiy va adabiy kobiliyati, ijodiy xayoli yuzasidan materiallar tuplash mumkin. Mazkur metoddan foydalanishda maxsulotni yaratgan shaxs bevosita ishtirok etmaydi. Ob'ekt Bilan sub'ekt urtasida muloqot urnatish uchun shaxsning psixikasi to'g'risida sirtidan muayyan xukm xulosa chikriladi.

Test metodi. Test- inglizcha So'z bo'lib, sinash, tekshirish, demakdir. Shaxsning akliy o'sishini, kobiliyatini, irodaviy sifatlari va boshka psixik xususiyatlarini tekshirishda qo'llaniladigan kiska tsandart masala, topshirik, misol jumboklar test deb ataladi: test ayniqsa odamning kandy kasbni egallash mumkinligini, kasbga yarokliligi yoki yaroksizligini, itse'dodlilar va akli zaiflarni aniqlashda, kishilarni saralashda keng qo'llaniladi. Test metodining kimmati tajribaning ilmiylik darajasiga, yigilgan psixologik ma'lumotlarning ob'ektivliigi va ularni ilmiy taxlil kila bilishga boglikdir.

1905 yildan, ya'ni frantso'z psixologi A Bine va uning shogirdi A Simon insoning akliy o'sish va is'tedod darajalarini ulchash imkoniyatini borligini goyasini olga surganidan keyin psixologiyada tts metodi qo'lna boshlandi.

Xozirgi davrda nodir testlar katoriga psixologlardan Rorshax, Rozentsveyg, Kettil, Varetgg, Veksler, Meyli, Ayze, Anatsazi, Raven va boshkalar ijodining namunalarini kiritish mumkin.

Tajriba metodi. Bu metod turli yoshdagi odamlarning psixikasini chuqurroq, aniqroq tadqiq qilish metodlari ichida eng muximi hisoblanadi. Eksperiment metodi yordamida sun'iy tushunchalarning shakllanishi, nutkning o'sishi, favqo'lotda xolatlardan chiqish, muammoli vaziyatni xal qilish jarayonlari, shaxsning xis-tuygulari, xarakter va tipologik xususiyatlari urganiladi.

Tajriba metodi uz navbatida tabiiy va laboratoriya metodlariga ajaratiladi. Tabiiy metod psixologik-pedagogik masalalarni xal qilishda qo'llaniladi. Bu metodning ilmiy asoslarini 1910 yilda A.F.Lazurskiy ta'riflagan. Tabiiy metoddan foydalanishda ishlab chikarish jamoalari a'zolarining, ilmiy muassalar xodimlarining, ukituvchilar, keksaygan kishilarning psixologik uzgarishlari, o'zaro munosabatlari, ish kobilyatlari, mo'taxassislikka yarokliligi muammolarini xal qilish nazarda tutiladi.

Labratoriya metodi kupincha individual shaklida sinaluvchilardang yashirmay, maxsus psixologik asboblari, yul-yuriklar, tavsiyalar, kursatma va ilovalardan foydalanib olib boriladi. Xozir inson psixikasidagi uzgarishlarni aniqlaydigan asboblari, murakkab elektron xisoblash mashinalari, kurilmalar, moslama va jixozlar mavjud. Ular odamdagi psixologik jarayonlar, xolatlar, funktsiyalar, vujudga kelayotgan Yangi sifatlarni kayd kili shva ulchashda qo'llaniladi.

Biografiya metodi. Inson psixikasini tadkiki qilish uchun uning xayoti, faoliyati, ijodiyoti to'g'risidagi ogzaki va yozma ma'lumotlar muxim ahamiyatga ega. Bu borada kishilarning tarjimai xoli, kundalgi, xatlari, esdaliklari, uzgalar ijodiga bergan baxolari, tanbexlari, takrizlari aloxida urin egallaydi. Shu bilan birga uzgalar tamonidan tuplangan tarjiami xoll xakidagi materiallar: esdaliklar, xatlar, rasmlar, tavsiflar, baxolar, magnitafon ovozlari, fotolavxalar, xujjatli fil'mlar, takrizlar urganilayotgan shaxsni to'larok tasavvur etishga xizmat qiladi.

Anketa metodi. Yosh davri psixologiyasida keng qo'llaniladigan metodlardan biridir. Uning yordamida turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlari, narsa va xodisalarga munosabatlari urganiladi.

Anketa odatda uchta xil to'ziladi. Ularning birinchi xili anglashilgan motivlarni aniqlashga muljallangan savollardan to'ziladi. Ikkkinchi xilida xar bir savolningbir nechtadan tayyor javoblari beriladi. Uchunchi xil anketada sinaluvchiga yozilgan to'g'ri javoblarni ballar Bilan baxolash tavsia etiladi, anketadan turli yoshdagi odamlarning layokatlarini, muayyan soxaga kizikishlari va kobilyatlarini, o'ziga, tengdoshlariga, katta va kichiklarga munosabatlarini aniqlash maksadida foydalaniladi.

Sotsiometrik metod. Bu metod kichik gurux a'zolari urtasidagi bevosita emotsional munosabatlarni urganish va ularning darajasini ulchashda qo'llaniladi. Unga amerikalik sotsiolog Djon Morenko asos solgan. Mazkur metod yordamida muayyan guruxdagi xar bir a'zoning o'zaro munosabatini aniqlash uchun uning kaysi faoliyatida Kim Bilan birga katnashishi suraladi. Olingan ma'lumotlar matritsa, grafik, sxema, jadval shaklida ifodalanadi.

Yosh davrlar psixologiyasi fani ham psixologiya ilmining boshqa sohalari singari o'zining ilmiy-tadqiqot metodlariga ega. Psixologik qonuniyatlarni muayyan reja asosida olib boriladigan tekshirishlar tufayligina xolisona aniqlik kiritish mumkin. Psixologik tadqiqotlar jarayonini quyidagi asosiy bosqichlarga bo'lish maqsadga muvofiqdir:

1. Muammoning qo'yilishi. Har qanday ilmiy-tekshirish ishlari kabi, psixologiyada olib boriladigan ilmiy tekshirish ishlari ham nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muammoni aniqlashdan, shuningdek bu muammo fanda qanchalik yoritilganligini aniqlash maqsadida mazkur mavzuga oid ilmiy va maxsus adabiyotlarni taxlil qilishdan boshlanadi.

2. **Tadqiqot metodikasini tanlash.** Psixologik tadqiqotlar turli metodlar {bu metodlar haqida quyida batafsil fikr yuritiladi) bilan olib boriladi. Tekshirishlarning muvaffaqiyatli chiqishi ko'p jihatdan metodni to'g'ri tanlashga bog'liq bo'ladi.

3. **Ma'lumotlarni to'lash.** To'plangan ma'lumotlar o'rganilayotgan muammoga mos bo'lishi yoki ularni to'plash maqsadda muvofiq ravishda olib borilishi zarur. Ilmiy ma'lumotlarga bo'lgan asosiy talablar - bu ularning xolisona, to'la va izchil bo'lishidir. To'plangan ma'lumotlar o'rganilayotgan muammoni har jihatdan tavsiflab berishi kerak,

4. **Ma'lumotlarni qayta ishlash.** To'plangan ma'lumotlarni matematik va mantiqiy jihatdan ishlab chiqish umumiylikni, xususiylikni topish va ularni tasodifiy ma'lumotlardan ajratish imkonini beradi. Bunda to'plangan ma'lumotlarning o'rtacha miqdori (arifmetik, kvadrat va hokazo), protsentlari aniqlanadi, sonlarga oid ma'lumotlar jadvallarga joylashtiriladi, grafik, diagramma va chizmalarda o'z aksini topadi. Murakkab mo'tanosiblikdagi ma'lumotlarni topishda esa variatsion statistika metodlari qullaniladi.

5. **qonulnyatlarni ifodllaniish.** Bu tadqiqotning birmuncha murakkab va mas'uliyatli bosqichi hisoblanadi, Chunki, bu bosqichda ma'lumotlarning mohiyatiga qanchalik chuqur tushunilganligi, ularning o'zaro bog'liqligini hisobga olib, bosqich ma'lumotidan har turli xulosa chiqarish mumkin. Ko'pincha chiqarilgan xulosalar taxminiy xarakterga ega bo'lib, keyingi tekshirishlar, aniqlashlar uchun asos bo'ladi.

6. **qonuniyatii amalda qo'llash.** Aniqlangan qonuniyatlar ma'lum bir amaliyot sohasida qo'llaniladi. Amalda qullash aniqlangan qonuniyatning to'g'riligiga batamom ishonch hosil qilish imkonini beradi. Ko'pincha o'qituvchilar o'z amaliy faoliyatlarida shaxsiy ko'zatishlari va boshqalarning tajribalarini umumiyashtiradilar. Biroq, bunday umumlashtirishlar ilmiy jihatdan etarli asoslangan bo'lmaydi, ya'ni, muhim aniqligi va teranligi bilan ajralib turmaydi.

Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar.

1. Abu Nasr Forobiyning "Baxt-saodatga erishuv" asarini mutolaa qiling va allomaning quyidagi qarashlarini yozma baen eting:

a) insoniy kamolotga erishuvda aqliy bilishning ahamiyati.

b) irodaviy fazilatlarini shakllantirish va odatga aylantirishda inson qudrati, ta'lim va tarbiyaning kuchi haqida.

v) yoshlarning kasb-hunar va ish-tajribani zgallashi to'g'risida.

2. Yosh davrlar psixologiyasi fanining vujudga kelish sabablarini ko'rsating.

3. Turli davrlarda psixik rivojlanish haqidagi talqinlarning mohiyatini yoritib bering.

4. Fanning predmeti, nazariy va amaliy vazifalari nimalardan iborat? Uning istiqboli haqida nima deya olasiz?

5. Yosh davrlar psixologiyasi tadqiqotlarni tashkil etish va ilmiy metodlari haqida ma'lumot bering.

PSIXIK RIVOJLANISH VA TA'LIM

1. Inson shaxsining tarkib topishi va psixik rivojlanishining sharoitlari. Biologik va ijtimoiy omillar.
2. Psixik taraqqiet va ta'limning o'zaro munosabati.
3. Yosh davrlari psixologiyasi yosh davrlarini tabaqalash muammolari.

Psixik rivojlanish va bu o'zgarishlarga sabab bo'ladigan kuchlar o'rtasidagi munosabat qonunlarini o'rganish yosh davrlari psixologiyasi fanining muhim va dolzarb muammolaridan biridir.

Inson shaxsining psixik rivojlanishi va uning shakllanishi murakkab tadqiqot jarayonidir. Zero, uning o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini asosli ilmiy bilish, o'quvchi shaxsiga pedagogik jihatdan ta'sir ko'rsatishning zarur shartidir.

Inson - biosotsial mavjudotdir. Uning birligi, bir tomondan, kishining psixik, tugma ravishda tashkil topgan xususiyatlari (masalan, ko'rish yoki eshitish sezgilarining, shuningdek, oliy nerv to'zilishining o'ziga xos xususiyatlari), ikkinchi tomondan esa faoliyatining ongli sub'ekti va ijtimoiy taraqqiyotning faol ishtirokchisi sifatida uning xulq-atvor (masalan, axloqiy odatlar) xususiyatlarida namoyon bo'ladi.

Xush, odam psixikasi va xatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan bu xususiyatlarni nimalar sirasiga kiritish mumkin? Inson psixikasining tabiati biologik yoki inqilobiy xarakterga egami?

Inson shaxsining tarkib topishi va psixik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning muammosi o'z mohiyati jihatidan g'oyaviy xarakterga ega, Shu bois, bu masalani hal qilishda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli oqimlar, yo'nalishlar maydonga kelgan. Inson shaxsining tarkib topishini tushuntirishda maydonga kelgan birinchi oqim *biogenetik kontseptsiya*, nazariya bulsa, ikkinchi oqim *sotsiogenetik kontseptsiya*dir.

Inson shaxsining tarkib topishini tushuntirishga intiluvchi *biogenetik oqim XIX* asrning ikkinchi yarmida maydonga kelgan.

Bola psixik xususiyatlarining tugma tabiati haqidagi ma'lumot shu vaqtga qadar aksariyat psixologiya maktablarining asosini tashkil etib kelmoqda. Mazkur ta'limot inson psixikasining barcha umumiy va individual xususiyatlari tabiat tomonidan belgilangan, uning biologik to'zilishiga tenglashtirilgandir, psixik rivojlanish esa, irsiy yo'l bilan azaldan belgilanib, inson organizmiga joylashtirilgan shu xususiyatlarning maromiga etilish jarayonidan iborat deb ta'kidlaydi. Ma'lumki, nasliy xususiyatlar tug'ma yo'l bilan nasldan naslga tayyor holda beriladi, biroq shunday bo'lishiga qaramay, bu oqim namoyandalari inson shaxsi va uning barcha xususiyatlari "**ichki qonunlar**" asosida, ya'ni nasliy xususiyatlar negizida maydonga keladigan narsa, biologik omillarga bog'liqdir, deb ta'kidlaydilar.

Biogenetik ta'limot, inson qobiliyatlarining rivojlanish darajasi (chunonchi, imkoniyatlarning chegarasi, uning eng yuksak nuqtasi) taqdir tomonidan belgilanib qo'yilganligini, o'quvchi imkoniyatlari va qobiliyatlarini maxsus testlar yordamida aniqlab, undan so'ng ta'lim jarayonini uning irsiyat tomonidan belgilangan taraqqiyot darajasiga moslashtirish, ularning aqliy iste'dod darajalariga qarab turli mavqedagi maktablarda tahsil olishga zarur deb ta'kiydlashadi.

Chunonchi, bu yo'nalish tarafdorlaridan, amerikalik psixolog E.Torndayk o'quvchilarning "**tabiyaviy kuchlari**" va "**tugma mayllar**"i psixik rivojlanishning etakchi omili qilib ko'rsatib, muhitning, ta'lim-tarbiyaning ta'siri - ikkinchi darajalidir deb aytadi.

Avstraliyalik psixolog K.Byuler bolalarning faqat aqliy taraqqiyotini emas, balki axloqiy rivojlanishi ham nasliy tomondan belgilangandir, deb ta'kidlaydi.

Amerikalik pedagog va psixolog Dj.D'yui-inson tabiatini o'zgartirib bo'lmaydi, odam irsiyat vositasida hosil qilgan ehtiyojlari va psixik xususiyatlari bilan tug'iladi. Bu ehtiyojlar va psixik

xususiyatlar tarbiya jarayonida namoyon bo`lib, ba`zida o`zgarishi, tarbiyaning esa miqdorini belgilab beruvchi mezondir, deb hisoblaydi.

Venalik vrach-psixolog 3. Frey mazkur oqim namoyandasi sifatada shaxsning faolligani, uni harakatta keltiruvchi kuchlarni quyidagi tarzda tushuntirishga intiladi. Odam o`zining qadimiy hayvon tariqasidagi avod-ajdodlaridan nasliy yo`l bilan utgan instinktiv mayllarning namoyon bo`layotgani tufayli faoldi. Z.Freydning fikriga ko`ra, instinktiv mayllar asosan jinsiy instinktlar shaklida namoyon bo`ladi. Z.Freyd, shaxsning faolligini dastavval jinsiy mayllar bilan boglaydi. Biroq instanktiv mayllar jamiyatda xuddi xayvonot olamidagidek erkin namoyon bo`lavermaydi. Jamiyatdagi jamoa hayoti odamni, undagi mavjud instinktiv mayllarni (ni, jinsiy mayllarni) juda ko`p jihatdan cheklab qo`yadi. Oqibatda odam o`zining ko`p instinktlari va mayllarini bosishga, tormozlashga majbur bo`ladi. Uning ta`limotiga ko`ra, tormozlangan instinkt va mayllar yo`kolib ketmaydi, balki bizga noma`lum bo`lgan ongsizlik darajasiga o`tkazilib yuboriladi. Ongsizlik darajasidagi bunday instinktlar va mayllar har turli **“komplekstiv** birlashadilar, go`yo inson shaxsi faolligining haqiqiy sababi ayni shu **“Komplekslar”**ni namoyon bo`lishidir. Z.Freydning ta`limotidan uning ochiqdan-ochiq biologizatorlik targ`ibotchisi ekanligini, inson shaxsining faolligini jinsiy mayllardan iborat ekanligi haqidagi nazariyasi Ilmiy asosga ega emasligini e`tirof etish mumkin.

Bunday ta`limotlardan, xususan din homiylari keng foydalanib, insonning taqdiri ana shu ilmlar bilan chambarchas bog`liqdir, deb ta`kidlashadi.

Inson shaxsining tarkib topishini o`rganish davomida yuzaga kelgan yana bir ta`limot- *sotsiogenetik kontseptsiya* qobiliyatlarning taraqqiyotini, faqat, tevarak-atrofdagi muhitning ta`siri bilan tushuntiradi. Bu yo`nalish o`z zamonasi uchun ilg`or hisoblangan XVIII asr frantsoz olimi K.Gel`vetsiy ta`limotidan boshlangan. K.Gel`vetsiyning ta`limotiga ko`ra, barcha odamlar aqliy va axloqiy rivojlanishi uchun tutilishdanoq mutlaqo bir xil tabiiy imkoniyatga ega bo`ladilar, shuning uchun odamlarning psixik xususiyatlaridagi farq, faqatgina muhit va tarbiyaning turlicha ta`sir qilishi bilan vujudga keladi, deb tushuntiriladi. Bu nazariya odamlarning psixik, ruhiy, oqibatda ijtimoiy tengsizligi ularning tula xususiyatlari degan taglimotga qarshi qaratilgan edi. Bu nazariyaning xorijiy mamlakatlardagi hozirgi turli namoyandalari psixikaning rivojlanishida ijtimoiy muhitning g`oyat darajada muhim rol`i borligini e`tirof etadilar.

Inson shaxsining tarkib topishini o`rganish davomida yuzaga kelgan sotsiogenetik kontseptsiya fanda eksperimentlarning rivojlanishi bilan bog`liqdir. Ma`lumki, XVII asrning ohiri va XUSH asrning "boshlarida tabiiy fanlar jadal sur`atlar bilan rivojlana boshladi, o`sha paytda hammaning diqqat-e`tibori mu`jizakor tajribaga qaratilgan edi. Bu xodisa inson shaxsining tarkib topishi masalasiga ham ta`sir kilmay qolmadi.

„Sotsiogenetik kontseptsiya namoyandalari insonning butun taraqqiyoti, shu jumladan, shaxsiy xususiyatlarning tarkib topishi, asosan, tajribaga bog`liqdir. Bu nazariyada shaxsda ruy beradigan o`zgarishlarni jamiyatning to`zilishi, ijtimoiylashish usullari, atrofidagi odamlar bilan o`zaro munosabat vositalari asosida tushuntiriladi. Bu ta`limotta ko`ra inson biologik tur sifatida tug`ilib, hayotdagi ijtimoiy shart-sharoitlarning bevosita ta`siri ostida shaxsga aylanadi.

Chunonchi, angaliyalik olim Djon Lokk dunyoga kelgan yangi chaqaloq bolaning ruhini **“top-toza paxtaga”** uxshatadi. Uning fikricha, bolaning **“top-toza paxta”** tarzidagi ruhiga nimalarni yozish mutlaqo katta odamlar ixtiyorlaridadir. Shuning uchun bolaning qanday odam bo`lib etishishi, ya`ni unda qanday shaxsiy fazilatlarining tarkib topishi bola hayotdan oladigan tajribaga, o`zgalar bilan muloqot jarayonida oladigan hayotiy tushuncha va tasavvurlariga bog`liqdir, deb ta`kidlaydi.

Har ikkala yo`nalishning namoyondalari, o`z manfaatlarining tashqi jihatdan bir-biriga qarama-qarshi bo`lishiga qaramay, insonning psixik xususiyatlarini nasliy, biologik omillar ta`siri ostida, yoki o`zgarimas muhit ta`sirida avvaldan belgilangan va o`zgarimas narsa, deb e`tirof etadilar.

Ma`lumki, odam shaxs sifatida muntazam, qandaydir faoliyatda tarkib topib boradi, rivojlanadi, uning faolligi namoyon bo`ladi. Agarda hayvonlar tevarak-atrofdagi tashqi muhitga passiv moslashib, hayot faoliyatlarida tabiatdagi, ya`ni tashqi muhitdagi tayyor narsalardan foydalansalar, odam esa tevarak-atrofidagi tashqi muhitga faol ta`sir ko`rsatib, uni o`z irodasiga bo`ysundiradi hamda o`zgartirib, o`z ehtiyojlarini qondirishga xizmat qildiradi.

Ko`zatishlar jarayonida shu narsa ma`lum bo`ldiki, odamdagi tugma, irsiy mexanizmlari uning psixik rivojlanishiga ta`sir ko`rsatadi-yu, biroq uning mazmunini ham, shaxsiy fazilatlarini ham belgilab bera olmaydi, Ta`kidlash zarurki, muhit ham bola psixikasivi rivojlantirishda muayyan rol` o`ynaydi. Faqat, buning uchun bolani o`qitayotgan kishilarning ta`siri natijasida bola ana shu muhitni faol ravishda o`rganib olishi, tabiiydir.

Psixologiya fani zamonaviy ta`limotga asoslangan holda inson shaxsining tarkib topishini asosan uchta omilning ta`siriga bog`liqlini dalillar asosida izoxlab beradi. Ulardan;

- **birinchisi** - inson tug`ilib voyaga etadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta`siri;
- **ikkinchisi** - odamga o`zoq muddat davomida muntazam tarzda beriladigan ta`lim tarbiyaning ta`siri;
- **uchinchisi** - odamga tug`ma ravishda, tayyor holda beriladigan nasliy xususiyatlarning ta`siridir.

Ma`lumki, har bir odam o`ziga xos, boshqalarda aynan takrorlanmaydigan ijtimoiy muxitda, aniq ijtimoiy munosabatlarda, ya`ni oila, jamoa va jamiyatda, odamlar orasida yashab ulg`ayadi, shakllanadi.

Bu ijtimoiy munosabatlarga odam jamiyat a`zosi sifatida, ma`lum sinfnig, u yoki bu ijtimoiy guruhning namoyandasi sifatida va nihoyat, tashkil qilinganlik va uyushqoqlik darajasi turlicha bo`lgan muayyan jamoalarning faol a`zosi sifatida qatnashadi.

Shaxsning mohiyati o`z tabiati jihatidan ijtimoiy xarakterga egadir. Shaxsdagi barcha psixik xususiyatlari, ijodiy faolligining rivojlaiish manbalari uning tevarak-atrofidagi ijtimoiy muhitda, jamiyatdadir. Inson shaxsi sababiy bog`liqlikda bo`lib, uning ijtimoiy turmushi bilan belgilanadi. Mana shu ma`noda shaxsning taraqqiyoti odamlar bilan munosabatda yuzaga keladigan ijtimoiy tajribani egallash jarayonidan iboratdir. Buning natijasida insonning psixik xususiyatlari, axloqiy fazilatlarini, xarakteri, irodaviy sifatlarini, qiziqishlari, e`tiqod va dunyoqarashi tarkib topadi.

Muhit, ma`lum maqsadga qaratilgan ta`lim va tarbiya, azaldan berilgan, genotik jihatdan qat`iy belgilangan nimanidir namoyon qilish uchun sharoitgina bo`lib qolmay, balki inson psixik xususiyatlarini tarkib toptiradi.

Bu borada, **birinchidan**, odam muhit ta`siri ostidagi passiv ob`ekt bo`lmay, balki faol mavjudotdir, Shu bois hayot sharoiti, tashqi ta`sir inson psixikasini belgilamaydi, balki odamning muhit bilan bo`lgan o`zaro ta`siri orqali, uning muhitdagi faoliyati orqali belgilanadi. Shu sababli muhitning ta`siri haqida emas, balki odamning tevarak-atrofdagi muhit bilan faol o`zaro ta`siri haqida gapirish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, psixikaning rivojlanishi pirovard natijada tashqi sharoitlarga, tashqi ta`sirotlarga bog`liqdir. Lekin bu rivojlanishini bevosita tashqi sharoitdan va tashqi vaziyatdan keltirib chiqarib bo`lmaydi. Bu sharoitlar hamda vaziyatlar hamisha odamning hayotiy tajribasi, uning shaxsi, individual psixologik xususiyatlari va psixik qnyofasi orqali ta`sir qiladi.

Uchinchidan, odam faol mavjudot sifatida o`zi ham ongli ravishda o`z shaxsini o`zgartirishi, ya`ni o`zi-o`zini tarbiyalash bilan shug`ullanishi mumkin, lekin, bu jarayon atrof-muhitdan ajralgan holda emas, balki muhit bilan moslashgan holda va muhit bilan o`zaro munosabatda sodir bo`ladi.

Yuqoridagilardan xulosa chiqarib shuni aytish mumkinki, odamning (bolaning, o`quvchining) ijtimoiy tashkil topgan va faol faoliyati uning psixik rivojlanishining asosi, vositasi hamda shartidir.

O`z-o`zidan ma`lumki, odamning psixik rivojlanishi uchun tabiiy, biologik imkoniyatlar nihoyatda zarurdir. Inson psixik xususiyatlari me`yorida tarkib topishi o`chun muayyan darajadagi biologik to`zilish, inson miyasi va nerv sistemasi bo`lishi shart. Bu tabiiy xususiyatlar psixik rivojlanigani harakatta keltiruvchi kuchlar, omillar emas, balki faqat dastlabki sharoitlardir, xolos.

Tabiiy xususiyatlar taraqqiyotni harakatta keltiruvchi kuch emasligiga qaramay, insoniyat psixik taraqqiyotiga ta`sir ko`rsatadi.

Birinchidan, tabiiy xususiyatlar psixik xususiyatlar taraqqiyotining turli yo`llarini va usullarini belgilab beradi. Inson nerv sistemasining xususiyatlari o`z-o`ziga shaxsning hech qanday psixik xususiyatlarini belgilamaydi, Hech bir me`yordagi bola dadil yoki qurqoq, irodali yoki irodasiz, mehnatsevar yoki yalqov, intizomli yoki intizomsiz bo`lib tug`ilmaydi, Agarda tarbiya to`g`ri tashkil qilinsa, nerv sistemasining istalgan tidi asosida xarakterning barcha ijtimoiy qimmatli xislatlarini shakllantirish mumkin. Masalan, sabot-matonat va o`z-o`zini to`ta bilish xislatini nerv sistemasining tipi shiddatli bo`lgan bolalarda ham, yoki nerv sistemasining tipi vazmin bo`lgan bolalarda ham tarbiyalash mumkin va tarbiyala bo`ladi. Biroq birinchi hol bolalarni tarbiyalash ikkinchi holdagilarni tarbiyalashga qaraganda qiyinroq bo`ladi. Har ikkala holda kerakli sifatlarni tarbiyalash yo`llari va usullari ham churlicha bo`ladi.

Ikkinchidan, tabiiy xususiyatlar odamning biror sohada erishgan yutuqlari darajasiga ham ta`sir qilishi mumkin. Masalan, qobiliyat ko`qishklarida tugma individual farqlar mavjud. Shu sababli ba`zi odamlar boshqa odamlardan ma`lum bir faoliyatni egallash imkoniyati jihatidan ustun turishadi. Ba`zida esa aksincha, biror-bir faoliyat turini egallash imkoniyati jihatidan esa ulardan ortda qolinglari mumkin. Mana shu ma`noda olganda odamlar o`z qobiliyatlarini baravar rivojlantirish imkoniyatiga ega emaslar. Garchi tabiiy ko`qishklar o`quvchilarning psixik rivojlanishi uchun ma`lum ahamiyatga ega bo`lsa ham (shu sababli, masalan, ta`lim jarayonida ayrim o`quvchilardan boshqa o`quvchilarga nisbatan ko`proq-zo`r berish talab qilinadi, ayrim o`quvchiga o`qituvchi ko`proq kuch sarflaydi, e`tibor beradi va ko`proq vaqt ajratadi), bu ko`qishklarning o`zi psixik taraqqiyotda hal qiluvchi rol` o`ynamaydi.

Turli yo`nalishga ega bo`lgan psixologlar, bir tomondan ta`lim va tarbiya, ikkinchi tomondan esa rivojlanish o`rtasidagi o`zaro munosabati muammosini keng doirada muhokama qilmoqdalar.

Rivojlanish deganda, odatda hodisalarning har ikki turi tushuniladi va bu tushunchalar bir-biri bilan chambarchas bog`liqdir: 1) miyaning biologik, organiketilishi, uning anatomik-fiziologik to`zilishi jihatidan etilishi; 2) psixik (aqliy) rivojlanishning ma`lum o`shish darajalari sifatadagi, o`ziga xos aqliy etilish sifatidagi psixik rivojlaiishi, o`z-o`zidan ma`lumki, aqliy rivojlanish miya to`zilishining biologik echilishi bilan bog`liqdir va bu xususiyat ta`lim-tarbiya ishlarida, albatta, hisobga olinishi lozim, chunki ta`lim miyaning organikjihatdan etilishini inkor eta olmaydi. Biroq miya bo`zilishining organikjihatdan etilishini muhitga, ta`lim-tarbiyaga mutlaqo bog`lanmagan holda o`zining qat`iy biologik qonunlari asosida sodir bo`ladi, deb bo`lmaydi. Muhit, ta`lim-tarbiya va tegishli mashq, miya to`zilishining organikjihatdan etilishiga yordam beradi.

Bu jarayonda ta`lim qanday mavqega ega? Ta`lim rivojlanishga nisbatan etakchi vazifani bajaradimi yoki aksincha? Bu muammoning hal qilinishi ta`lim jarayonining mazmuni va metodikasini, o`quv dasturlari va darsliklarning mazmunini belgilab beradi.

Bu borada nemis psixologi V.Shtern: ta`lim psixik rivojlanishning orqasidan boradi va unga moslashadi, degan fikrni olg`a surgan edi. Bu fikrga qarama-qarshi rus psixolog L.S.Vigotskiy bolaning psixik rivojlanishida ta`lim va tarbiyaning etakchilik rol`i bor, degan qoidani birinchi bo`lib ilgari surdi va uni: ta`lim rivojlanishdan oldinda boradi va uni o`z orqasidan ergashtirib olib boradi, deb aniq

ifodalab beradi. Yuqorida bayon qilingan birinchi fikrga muvofiq ta`lim faqat rivojlanish tomonidan erishilgan narsalardan foydalanadi. Shuning uchun aqliy jihatdan etilish jarayoniga aralashmaslik, unga xalaqit bermaslik, balki ta`lim uchun imkoniyat etilguncha chidam bilan passiv kutib turish kerak.

Shveysariyalik psixolog J.Piajening nazariyasi ham ayni shu g`oyalar bilan yo`g`rilgandir.

J.Piajening fikricha, bolaning aqliy usishi o`zining ichki qonunlari asosida rivojlana borib, sifat jihatdan o`ziga xos bir qator genetik bosqichlarni bosib o`tadi. Ta`lim - bu aqliy etilish jarayonini faqat bir qadar tezlatishga yoki syokinlashtirishga qobildir, lekin u aqliy jihatdan etilish jarayoniga hech qanday jiddiy ta`sir ko`rsata olmaydi. Demak, ta`lim rivojlanish qonunlariga buysinishi kerak. Masalan, bolada mantiqiy tafakkur etilmay turib, uni mantiqiy fikr yuritishga o`rgatish foydasizdir. Ta`limning turli bosqichlari bolaning tegishli psixologik imkoniyatlari pishib etiladigan muayyan yoshidan qat`iy nazar bog`liqligi ana shundan kelib chiqadi.

Ta`kidlash joizki, ta`lim etakchi rol`ni bajaradi, ta`lim va rivojlanish esa o`zaro bir-biriga bog`liqdir; ular alohida sodir bo`ladigan ikki jarayon bo`lmay, balki bir butun jarayondir. Ta`limsiz to`la aqliy rivojlanish bo`lishi mumkin emas. Ta`lim rivojlanishga turtki bo`ladi, rivojlanishni o`z ortidan ergashtirib boradi. Zarur sharoit tug`ilganda ta`lim mantiqiy fikrlash malakasini tarkib toptiradi va tegishli aqliy rivojlanish uchun zamin bo`ladi, lekin, ta`lim rivojlanishga turtki bo`lish bilan bir vaqtda o`zi rivojlanishga tayanadi, erishilgan rivojlanish darajasining xususiyatlarini, rivojlanishning ichki qoidalarini albatta, inobatga oladi. Ta`limning imkoniyatlari juda keng bo`lsa-da, biroq cheksiz emas. Yirik rus psixologi L.S.Vigotskiy ta`lim va taraqqiyot muammosiga ijtimoiy-tarixiy jarayon nuqtai-nazaridan yondashib, bilimlarni o`zlashtirish insoniyatning tarixi taraqqiyotida yaratilgan madaniyatda ishtirok etish jarayonidir, deb ta`kidlaydi. U olga surgan psixik funktsiyalar taraqqiyotining madaniy-tarixiy nazariyasiga ko`ra, psixik faoliyat taraqqiyotining “*tabiiy*” shaklini bevosita qayta qurgan holda, turli alomatlar bilan avval tashqi, so`ng ichki ifodalanishni nazarda tutib, “madaniy” shaklini egallash tushuniladi,

Shu munosabat bilan L.S.Vigotskiyning psixologiyaga kiritgan “*psixik taraqqiyotning eng yaqin zonasi*” tushunchasi muxim ahamiyat kasb etadi. Buning asl mohiyati, bolaning mustaqil faoliyat kattalar bilan hamkorlikda, uning rahbarligida amalga oshiriladi. L.S.Vigotskiy tomonidan kiritilgan “psixik taraqqiyotning eng yaqin zonasi” tushunchasi “ta`lim taraqqiyotdan oldinda boradi” degan umumiy qoidaning yaqqol mazmunini tushunish uchun imkoniyat yaratadi,

E.Torndayk va J.Piajening ta`lim bilan taraqqietni ayni bir narsa deb tushuntirishiga qaramay L.S.Vigotskiy: “*Bola taraqqiyotinn hech mahal maktab ta`limidan tashqaridagi soya deb hisoblash mumkin emas*”, - deb ta`kidlaydi. Bundan tashqari, ta`lim va taraqqiyot bir-biriga tobe bo`lmagan jarayonlardir, degan yunalishdagi psixologlarni ham u qattiq tanqid qiladi. P.P.Blonskiy ta`limning bola taraqqiyotidagi o`rniga alohida ahamiyat beradi, shuning uchun o`quvchilarning aqliy rivojlanishi tug`ridan-to`g`ri maktab dasturi mazmuniga bog`liq ekanligini ta`kidlaydi. Uning fikricha-ta`lim jarayonida bolalar ma`lum qoida asosida faoliyat qilishga odatlanadilar. Ta`lim ta`siri natijasida o`quvchilarda o`z-o`zini va o`zining aqliy faoliyatini nazorat qilish yuzaga keladi. Psixolog-olimlardan V.V.Davidov, P.Ya.Gal`perin, D.B.El`konin, N.AMenchinskaya, A.A.Lyublinskaya, E.G.Gozievaar o`z tadqiqotlarida ta`limning taraqqiyotdagi etakchi rol`ini ta`kidlashadi.

Psixik taraqqiyotning omillari va sharoitlari aniqlab olingan taqdirda ham, psixikada yuzaga keladigan o`zgarishlarning manbalari, psixik rivojlanishni harakatta keltiruvchi kuchlar nimalardan iborat, degan savolning tug`ilishi, tabiiydir.

Bolaning psixik rivojlanishini harakatlar keltiruvchi kuchlar murakkab va turli-tumandir. Rivojlanishning mohiyatini qarama-qarshiliklar ko`rashidan, ichki ziddiyatlar bolaning, psixik rivojlanishini bevosita harakatta keltiruvchi kuchlar, ta`lim va tarbiya jarayonida yuzaga keladigan

hamda bartaraf qilinadigan eskilik va yangilik o`rtasidagi qarama-qarshiliklardan iboratdir. Bunday ziddiyatlarga, masalan, faoliyat tomonidan yuzaga keladigan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o`rtasidagi ziddiyatlar; bolaning o`z borayotgan jismoniy va ruhiy imkoniyatlari bilan esa, tarkib topgan o`zaro munosabat shakllari va faoliyat turlari o`rtasidagi ziddiyatlar; jamiyat, jamoa, katta odamlar tomonidan kundan-kunga ortib borayotgan talablar bilan psixik taraqqiyotning mazkur darajasi o`rtasidagi ziddiyatlar qiradi.

Masalan, kichik maktab yoshidagi o`quvchida mustaqil irodaviy faoliyatga nisbatan bo`lgan tayyorlik bilan xatti-harakatlarning mavjud vaziyatga yoki bevosita ichki kechinmalarga bog`liqligi o`rtasida ziddiyat mavjuddir o`smirlarda esa eng kuchli ziddiyatlar bir tomondan, uning o`ziga, o`zi baho berishi va o`z talablari darajasi va ikkinchi tomondan, atrofdagilarning unga nisbatan bo`lgan munosabatlari haqidagi ichki kechinmasi o`rtasida. Shuningdek, o`zining jamoadagi real mavqei tug`risidagi ichki kechinmasi o`qishida; katta odamlar hayotida to`la huquqli a`zo sifatida qatnashiti ehtiyoj bilan bunga o`z imkoniyatlarining mos kelmasligi o`qishida paydo bo`ladi.

Kursatilgan barcha ziddiyatlar birmuncha yuqori darajadagi psixik faoliyatlarni tarkib toptirish orqali bartaraf qilinadi. Natijada bola psixik rivojlanishning yanada yuksakroq bosqichiga ko`tariladi. Ehtiyoj qondiriladi - ziddiyat yo`qoladi. Biroq qondirilgan ehtiyoj, yangi ehtiyojni tug`diradi. Bu ziddiyat boshqa bir ziddiyat bilan almashinadi, taraqqiyot davom etadi.

Rivojlanish faqat sof miqdor o`zgarishlari jarayonidan, ya`ni qandaydir psixik hodisalarning, xususiyat va sifatning kupayishi yoki kamayishidan iborat bo`lib qolmay, balki sifat jihatdan yangi xususiyatlar, ya`ni yangidan hosil qilingan sifatning paydo bo`lishi bilan bog`likdir.

Psixologlar psixik rivojlanishning umumiy qonuniyatlari borligini qayd etib ko`rsatmoqdalar. Biroq muhit ta`siriga nisbatan bu qonuniyatlar ikkilamchidir, chunki bu qonuniyatlarning o`ziga xos xususiyatlari hayot sharoitiga, faoliyatda va tarbiyaga bog`liqdir. Mana shunday umumiy qonuniyatlarga birinchi navbatda ***psixik rivojlanishning notyokisligi*** qiradi. Buning mohiyati shundan iboratki, har qanday sharoitda, hatto ta`lim va tarbiyaning eng qo`lay sharoitlarida ham shaxsning turli psixik belgilari, funktsiyalari va xususiyatlari rivojlanishning bitta darajasida to`xtab turmaydi. Bolaning ayrim yosh davrlarida psixikaning u yoki bu yo`nalishlarida rivojlanish uchun nihoyatda qulay sharoitlar paydo bo`ladi va bu sharoitlarning ba`zilari vaqtinchalik, o`tkinchi xarakterda bo`ladi. ***U yoki bu psixik xususiyatlar va sifatning rivojlanishi uchun eng qulay sharoitlar bo`lgan ana shunday yosh davrlari sezitiv davrlar deb ataladi.*** (L.S.Vigotskiy, A.N.Leont`ev). Bunday senzitivaik davrning mavjudligiga miyaning organik jihatdan etilgan qonuniyati ham, ayrim psixik jarayonlar va xususiyatlar ham, hayotiy tajriba ham sabab bo`ladi.

Shunday qilib, bolaning, maktab o`quvchisining psixik rivojlanishi - murakkab taraqqiyot jarayonidir.

Psixologiya fanida yosh davrlarini tabaqalash bo`yicha turlicha usullar mavjuddir. Bu inson shaxsini tadqiq qilishga turli nuqtai-nazardan yondashuvi va mazkur muammoning mohiyatini turlicha eritadi.

Ma`lumki, har bir davr o`zining muhim hayotiy sharoitlari, ehtiyojlari va faoliyati, o`ziga xos qarama-qarshiliklari, psixikasining sifat xususiyatlari va psixik jihatdan xarakterligi sifatning hosil bo`lishi bilan ajralib turadi. Har bir davr o`zidan oldingi davr tomonidan tayyorlanib, uning asosida shakllanishi va o`z navbatida, o`zidan keyingi davrning paydo bo`lishi uchun asos bo`lib xizmat qiladi. Shu urinda psixologiyada mavjud yosh davrlarini tabaqalash nazariyalariga urgu berib o`tish maqsadga muvofiqdir.

Shveysariyalik psixolog J.Piajening aql-idrok nazariyasi, aql-idrok funktsiyalari hamda uning davrlari haqidagi ta`limotni o`z ichiga oladi. Aql-idrokning asosiy vazifalari, moslashish va ko`nikishdan iborat bo`lib, bu uning doimiy vazifalar turkumini tashkil etadi.

Muallif, bola aql-idrokini quyidagi psixik rivojlanish davrlariga tasniflaydi:

1. sensomotor intellekti-tug`ilgandan 2 yoshgacha;

2.operatsiyagacha tafakkur-davri - 2 yoshdan 7 yoshgacha;

3.aniq operatsiyalar davri-7,8 yoshdan 11, 12 yoshgacha;

4.rasmiy operatsiyalar davri.

Frantso`z psixologi A.Vallon esa yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratadi:

1) homilaning ona qornidagi davri;

2) impul`siv harakat davri - tug`ilgandan 6 oylikkacha;

3) his-tuyg`u davri (emotsional) - b oylikdan 1 yoshgacha;

4) sensomogor (idrok bilan harakatning uyg`unlashuvi) davri 1 yoshdan 3 yoshgacha;

5) personologizm (shaxsga aylanish) davri - 3 yoshdan - 5 yoshgacha;

6) farqlash davri - 6 yoshdan - 11 yoshgacha;

7) jinsiy etilish va o`spirinlik davri - 12 yoshdan -18 yoshgacha.

Rus psixologiyasidagi yosh davrlarini tabaqalash muammosi dastlab L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, B.G.Anan`ev singari yirik psixologlarning asarlarida o`z aksini topa boshlagan. Keyinchalik bu muammo bilan shug`ullanuvchilar safi ortib bordi, shu bois yosh davrlarini tasniflash muammosi o`zining kelib chiqishi, Ilmiy manbai, rivojlanish jarayonlariga yondashilishi nuqtai nazaridan bir-biridan keskin farq qiladi, Hozirgi vaqtda yosh davrlarini tabaqalash yuzasidan mulohaza yuritishda olimlarning Ilmiy qarashlarini muayyan guruhlarga ajratish va ularning mohiyatini ochish maqsadga muvofiqdir.

L-S.Vigotskiy psixologlarning yosh davrlarini tabaqalash nazariyalarini tanqidiy tahlil qilib, muayyan rivojlanishni vujudga keltiruvchi ruhiy yangilanishlarga tayanib, yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratadi;

1. Chaqaloqlik davri inqirozm.

2. Go`daklik davri - 2 oylikdan 1 yoshgacha, bir yoshdagi inqiroz.

3. Ilx bolalik davri - 1 yoshdan 3 yoshgacha - 3 yoshdagi inqiroz.

4. Maktabgacha davr - 3 yoshdan 7 yoshgacha - 7 yoshdagi inqiroz.

5. Maktab yoshi davri - 8 yoshdan 12 yoshgacha - 13 yoshdagi inqiroz.

6. Puberdat (jinsiy etilish) davri - 14 yoshdan 18 yoshgacha, yoshdagi inqiroz.

L.S.Vigotskiy o`zining yosh davrlarini tabaqalash nazariyasini ilmiy asoslab, ta`riflab bera olgan. Olim eng muhim psixik yangilanishlar haqida Ilmiy va amaliy ahamiyatga molik mulohazalar bildirgan. Biroq, bu mulohazalarda ancha munozarali, bahodi o`rinlar ham mavjud. Umuman L.S.Vigotskiyning yosh davrlarini tabaqalash nazariyasi Ilmiy garixiy ahamiya-lta ega, uning rivojlanishni amalga oshiruvchi inqirozlar to`g`risidagi mulohazali va olga surgan g`oyalari hozirgi kunning talablariga mosdir.

D.B.El`koninning tasnifi etakchi faoliyat (A.N.Leont`ev) nazariyasiga, har qaysi rivojlanish pallasida biror faoliyatning ustunlik qilishi mumkinligiga asoslanadi, etakchi faoliyatning inson shaxs sifatida kamol topishidagi rol`i, nazariyaning asosiy mohiyatini tashkil qiladi.

D.B.El`konin yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratishni lozim toshdi:

1. Go`daklik davri - tug`ilgandan 1 yoshgacha - etakchi faoliyat -bevosita emotsional muloqot;

2. Ilk bolalik davri - 1 yoshdan 3 yoshgacha - etakchi faoliyat -predmetlar bilan nozik harakatlar qilish;

3. Maktabgacha davr - 3 yoshdan 7 yoshgacha - rol`li o`yinlar;

4. Kichik maktab yoshi davri - 7 yoshdan 10 yoshgacha - o`qish;

5. Kichik o`smirlik davri - 10 yoshdan 15 yoshgacha - shaxsning intim (dilkash, samimiy) muloqot;

6. Katta usmirlik yoki ilk uspirimli davri - 16 yoshdan 17 yoshgacha; - etakchi faoliyat - o`qish, kasb tanlash davri.

D.B.El`konin tasnifini ko`pchilik psixologlar tomonidan e`tirof etilsa-da, biroq uning birmuncha munozarali tomonlari mavjud. Umuman D.B.El`koninning mazkur nazariyasi psixologiya fanida, ayniqsa yosh davrlari psixologiyasida muhim urin to`tadi.

Bolalar psixologiyasi fanining yirik namoyondasi A.ALyublinskaya inson kamolotini yosh davrlarga ajratishda faoliyat nuqtai nazaridan yondashib, quyidagi davrlarni atroflicha ifodalaydi;

1. Chaqaloqlik davri - tug`ilgandan bir oylikkacha;
2. Kichik maktabgacha davr - 1 oylikdan 1 yoshgacha;
3. Maktabgacha tarbiyadan avvalgi davr -1 yoshdan 3 yoshgacha;
4. Maktabgacha tarbiya davri - 3 yoshdan 5 yoshgacha;
5. Kichik maktab yoshi davri - 7 yoshdan 11, 12 yoshgacha;
6. O`rta maktab yoshi davri (uspirin) - 13 yoshdan 15 yoshgacha;
7. Katta maktab yoshi davri-15 yoshdan 18 yoshgacha.

Pedagogik psixologiyaning taliqli namoyondasi B,A.Krutestkiy insoning ontogenetik kamolotini quyidagi bosqichlardan iboratligini ta`kidlaydi:

1. Chaqaloklik (tug`ilgandan 10 kunlikkacha);
2. Go`daklik (10 kunlikdan 1 yoshgacha);
3. Ilk bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha);
4. Bog`chagacha davr (3 yoshdan 5 yoshgacha);
5. Bog`cha yoshi (5 yoshdan 7 yoshgacha);
6. Kichik maktab yoshi (7 yoshdan 11 yoshgacha);
7. O`smirlik (11 yoshdan 15 yoshgacha);
8. Ilk o`spirinlik yoki katta maktab yoshi (15 yoshdan 18 yoshgacha). Yuqoridagi har ikkala tasnif puxtaligidan, ularga qanday nuqtai nazardan yondashilganligidan qat`iy nazar inson kamolotini tula ifodalab berishga o`zlik qiladi.

Mazkur nazariyalar insonning shaxs sifatida shakllanishi bosqichlari haqida ko`proq ma`lumot beradi, xolos. Ularda yoshlik, etuklik qarilik davrlarining xususiyatlari, qonuniyatlari tug`risida nazariy va amaliy ma`lumotlar etishmaydi. Shunga qaramay ular o`qish maktab pedagogik psixologiya fani uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi zamon psixologiyasining yirik vakili AV.Petrovskiy inson kamolotiga, shaxsning tarkib topishiga ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan yondashib, shaxsning shakllanishini quyidagi bosqichlarda amalga oshishini ta`kidlaydi:

1. Ilk bolalik (maktabgacha tarbiya yoshidan oyadingi davr) -tug`ilganidan 3 yoshgacha.
2. Bolalik davri - 3 yoshdan 7 yoshgacha.
3. Kichik maktab yoshi davri - 7 yoshdan 11 yoshgacha,
4. O`rta maktab yoshi (usmirlik) davri - 11 yoshdan 15 yoshgacha-
5. Yuqori sinf o`quvchisi (ilk o`spirinlik) davri - 15 yoshdan 17 yoshgacha.

AV.Petrovskiyning tasnifi mukammal bulsa-da, kamolotning oraliq bosqichlarini, ularning o`ziga xos xususiyatlarini ifodalamaydi. Baholanki, ushbu ijtimoiy qoidalarga muvofiqmi yoki aksincha, qanday bo`lishidan qat`iy nazar, har ikkala yo`nalishning ham oraliq jabhalari bulishy ehtimoldan holi emas.

Ma`lumki, har bir yosh davr, o`ziga xos xususiyatlar bilan belgilanadi, bo`larga: oilada va maktabda bola holatining o`zgarishi, ta`lim va tarbiya shakllarining o`zgarishi hamda bolaning yangi faoliyat turlari, organizmdagi ayrim xususiyatlarning etilishi singari jarayonlarni qiritish mumkin.

Hozirgi zamon psixologiyasida yosh davrlarini shu nuqtai nazardan tabaqalash maqsadga muvofiqdir:

1. Ilk bolalik davri -tug`ilgandan 3 yoshgacha;
2. Bog`cha davri - 3 yoshdan 6, 7 yoshgacha;

3. Kichik maktab yoshi davri - 6, 7 yoshdan 10, 11 yoshgacha;
4. O`rta maktab yoshi (usmirlik davri) - 10, 11 yoshdan 14, 15 yoshgacha;
5. Ilk o`spirinlik (kollej va litsey o`quvchilari) 14, 15 yoshdan 17, 18 yoshgacha.

Umuman, psixologlar tomonidan esh davrlarini tabaqalashtirishning puxta, ilmiy-metodologik negizga ega bo`lgan qator nazariyallari ishlab chiqilgan. Hozirgi kunda ular ontogenetik qonuniyatlarni yoritishga katta hissa qo`shib, uning nazariy va amaliy muammolarini hal qilishda muhim o`rin egallab kelmoqda. Biroq, shunday bo`lsada, hozir ontogenezni to`la yoritishga xizmat qila oladigan nazariyasini yaratish zaruriyati mavjuddir.

Taqrorlash va muhokama qilish uchun savollar.

1. Psixik taraqqiyotning omillari, shartlari va harakatlantiruvchi kuchlari haqida ma`lumot bering?
2. Psixik taraqqiyot va ta`limning o`zaro munosabati deyilganda nimani tushunasiz?
3. Psixik taraqqiyotning qonuniyatlari nimalardan iborat?
4. etakchi faoliyat deyilganda nimani tushunasiz?
5. Yosh davrlarini tasniflab bering?
6. Yosh davrlarini tabaqalash haqidagi turli nazariyalar haqida ma`lumot bering?

YoSh DAVRLARI PSIXOLOGIYASINING RIVOJLANISH BOSKICHLARI.

ReJA:

1. Jaxon psixologlari asarlarida yosh davrlari muammosi
2. Jaxon psixologlari asarlarida inson
3. Sharq mo`taxasisilarining asarlarida inson ruxiyati psixologik muammo sifatida.
4. Komil inson tarbiyasi - Sharq mo`tafakkirlarining talqinida.

Utgan ajdodalarimiz yosh psixologiyasining muammolarini izchil va atroflicha, muayyan yunalishda, ma`lum kontseptsiya asosida urganmagan bulsalar xam, allomalarning asarlarida mazkur xolatlarining aks etishi, namoyon bulishi, rivojlanishi va uzgarishlari to`g`risida kimmatli fikrlar bildirilgan. Bular turt xil manalarda uchraydi. Ularning biri- xalk ijodiyoti: rivoyatlar, makollar, matallar va masalalar; ikkinchisi – maxsus ijodkor kishilar (xatto xukmdorlar) muayyan shaxsga bagishlab yozgan ugit nasixatlari va xikoyatlari; uchunchisi – komusiy, urta Osiyo mo`tafakkirlarining ilmiy nazariy karashlari; turtinchisi – turli davrlarda ijod kilgan shoir va yozuvchilar ijodining maxsullari, ya`ni badiiy asarlardir.

Abu nasr Farabiyning inson va uning psixakasi xakidagi axlokiy-falsafiy mushoxadalarini «Ideal shaxar axolisining fikrlari», «Masalalar moxiyati», «Falsafiy savollar va ularga javoblar», «Jisam va akpedentsiyalarning shaklariga karab bulinishi», «Sharxlardan», «Xikmat ma`nolari», «Akl ma`nolari», «Akl ma`nolari to`g`risida» kabi asarlarida bayon etilgan.

Abu Rayhon Beruniy o`zining «O`tmish yodgorliklari» kitobida inson hayotiga doir hima-hil ma`lumotlarni keltiradi. Shu jumladan, olim kishilarning jismoniy to`zilishi, umrlarining uzun qisqaligi tug`risida bildirgan mo`lohzalar diqqatga sazovor. Beruniy odam uzok vakt yashashining sabaini biologik va irsiy omillar bilan boglaydi. Bu jixatdan uning «Xindiston», «Menirologiya» asarlari, Ibn Sino bilan yozishmalari aloxida axamiyatga ega.

Ibn Sinoning 5 tomlik «Tib qonunlari» asarida organizmning to`zilishi undagi nervlar va nerv yullari, fiziologik jarayonlar bilan boglik psixik jarayonlar xakida ancha muxim ma`lumotlar bor. Uning «Odob xakida» risolasi xam inson shaxsini shakllantirish to`g`risidagi jiddiy asardir.

Yusuf Xos Xojibning «Ko`tadgu bilig» asaridagi bosh masalalardan biri komil insonni tarbiyalashdir. Adib uz asarida eng komil, jamiyatning usha davridagi talablariga javob bera oladigan insonni kanday tasavvur kilgan bulsa, shu asosda uz printsiplarini bayon etadi. A Jomiyning «Baxoriston», «Xiradnomai Iskandariy», «Tuxfatul abror», «Silsilatuz zaxob» va boshka asarlarida ilm ma`rifat, ta`lim-tarbiya, kasb xunar urganish, yaxshi xislatlar va odoblilik xakidagi fikrlar ifodalangan.

Davoniy o`zining «Axloki Jaloliy» nomli asarida insoniy fazilatlarini turtga bo`ladi va bular donolik, adolat, shijoat va iffatdir. Shoir, ayniqsa donolik fazilatni chukur taxlil qiladi. Uningcha, inson o`zining akliy kobiliyati va akliy iste`dodini tarbiyalash uchun zukko, zexnli, faxm farosatli bulishi va bilimlarni tez egallashi lozim.

A Navoiyning «Xazoniyul maoniy», «Maxbubul qo`lib» va boshka asarlarida etuk barkamol insonning axloki, ma`naviyati, odamlarga munosabati, iste`dodi va kobiliyati to`g`risida kimmatli muloxazalar yuritilgan. Anna shu psixologik kategoriyalar ijtimoiy adolat karor topishi uchun muxim axamiyatga ega ekani ta`kidlangan. Shuningdek, Navoiy asarlarida shaxsning kamol topishida ota-onaning roli, ayollarning iffatligi, insonlarning kamtarligi masalalari, aloxida urin egallaydi. Navoiy «Xamsa»sining xar bir dotsonida bukilmis iroda, irodaviy sifatlar, kat`iyatlik, shijoat, insonparvarlik tuygulari, ijodiy xayolot, insonning murakkab ichki kechinmalari moxirona yortilgan.

Yuqoridagilardan tashkari, BObur, Farobiy, Majlusi, Mashrab, Gulxaniy, Nodira, Uvaysiy, Mukumiy, Furkat, Bedil, Zavkiy, Xamza, Avloniy va boshkalarning yoshlar tarbiyasiga, axlok-odob, fe'l atvor, oilaviy xayot masalariga, shaxslararo munosabatlarga doir karashlari xam turli janrlardagi asarlarda ravon va ixcham bayon qilib berilgan.

Rossiyada psixologik tadqiqot namunalari Shark va Garb madaniyati ta'sirida inson ruxiyati Bilan boglik ator ogzaki va yozma, Amaliy va ilmiy asarlarda paydo bulla boshladi. Dastlabki pedagogik psixologik mazmundagi asarlar XVII-XVIII asrlarda diniy axlokiy negizda yozilgan edi. XVIII asrdan boshlab bolalar psixologiyasi buyicha muayyan tartibga, yunalishga va uslubga ega bo'lgan ilmiy fikrlar vujudga keldi. Rus tarixchisi V. N, Tatishchev (1686-1750) ning «Fanlar va bilim yurtlarining foydasi to'g'risida suxbat» kitobida fanlarning tasnifi, bilimlarni egallash zarurligi, tilning xosiyati, yozuvchining axamiyati, yosh davrlarning xususiyati nuktai nazardan bayon kilingan. N I Novikov (1744-1818) bashariyat farovonligini kuzlab yoshlar va bolalar urtasida foydali bilimlarni keng yoish uchun ularni o'ziga xos yusunda tarbiyalash kerakligi goyasini ilgari suradi. Uning asarlarida insonning kamoloti uchun tafakkur, xotira, axlok, idrok, xis-tuygu va taklidchilik aloxida axamiyatga ega ekani ta'kidlanadi. A. N Radishchevning (1748-1802) «Peterburgdan Moskvaga sayoxat» kitobi xam aslida peadagogik-psixologik asar deyish mumkin. Rus demokratlari A N Gertsen, N G Chernishevskiy, N A Dobrolyubov, V G Belinskiylarning inson kamoloti to'g'risidagi karashlari psixologiyani jonlantirishda muxim rol uynadi.

Rossiyada ilmiy psixologiyani rivojlantirishda K D Ushinskiy, N F Kapterev, I A Sikorskiy, A P Nechaev, A F Lazuruskiy, P F Ushinskiyning «Inson tarbiya predmeti», N F Sikorskiyning «Bola ruxi», A P Nechaevning «Xozirgi zamon ekspermentla psixologiyasi va uning maktab ta'limiga munosabati», A F Lazuruskiyning «Maktab o'quvchisining tavsifi», P F Lesgaftning «Oilada bola tarbiyasi va uning axamiyati» K elnitskiyning «Kizlar tavsifi» asarlari psixologik ilmiy tadqiqotni jadallashtirishga xizmat qiladi.

Rossiyada G I Rosolinoning «Yosh psixologiyasi va nevrologiyasi» labaraoriyasi ishga tushdi. «Tarbiya xabarlar», «Rus maktabi», «erkin tarbiya», «Kundaliklar» kabi jurnallar Chop etila boshladi. Ana shuning zamirida «Oila tarbiyasi komusi» Dune yuzini kurdi. Bularning barchasi shaxs psixologiyasi va differentsial psixologiyaning Fan sifatida shakllanishiga imkoniyat yaratdi.

Yuqorida aytilgan asarlarda idealitsik karashlarga xayrixolik, ijtimoiy muxitning axamiyatiga e'tiborsizlik kuzga tashlanadi. Ularda insoning ijtimoiy mavjudotligini tan olinib, unga ilmiy materialitsik nuktai nazardan yondashilsa-da, insondagi psixologik, fiziologik va biologik jixatlar, tarkibiy qismlar tabakalanmaydi, tashki muxitni bosh omil deb tushuntiriladi.

Rus fiziologiyasining otasi I.M. Sechenov psixikaning reflektor xususiyatini kashf qilib, shuningdek, bilish jarayoni, inson xis-tuygusi, o'zini o'zi anglashning fiziologik mexanizmini tushuntirishi Fan olamidagi keskin uzgarish yasadi. I P Pavlov kashf etgan karor qonuniyatlar, xossalar, ikkinchi signallar sistemasi eksperementla ishlarni olib borishga puxta zamin xozirlaydi.

I M Sechenov, I P Pavlov goyalariga asoslangan P O Effusi, N e Ribakov, K N qornilov, P P Blonskiy, L S Vigotskiy va boshka olimlar yosh psixologiyasi buyicha kimmatli tadqiqotlarni amalga oshirdilart va yangidan Yangi qonuniyatlarni yaratdilar.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Garbiy evropa mamlakatlari va Akshda yosh psixologiya fanlarida ilmiy tadqiqotlarga asoslangan kator asarlar paydo buldi. Amerikalik psixolog U Djems «Ukituvchilar Bilan psixologiya to'g'risida suxbat» (1902) asarida yosh davrning xususiyatlari xakida ilmiy va Amaliy axamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni chukur taxlil kildi. K Byuler xonim (1879-1963) o'zining ilmiy tadqiqotlarida faoliyatning xar xil yosh davrlaridagi rolini, faoliyat turlarida

fantaziya, tafakkur, nutk jarayonlarining rivojlanishini, akliy faoliyat xamda uning rivojlanish boskichlarini, shaxsning shakllanishida biologik va ijtimoiy omillarning axamiyatini izchil urgandi.

Mazkur soxada tubdan farklanuvchi goyalar, nazariyalar yuzaga keldi, Masalan, amerikalik psixolog S Xoll (1844-1924) Gekkelning evolyutsiya qonuniyatini psixologiyaga bevosita kuchiradi. Uning fikricha irsiyat filogenezni ontogenezda takrorlaydi, xolos. Shvetsariyalik psixolog E Klapared (1873-1940) S Xolldan farkli ularok, ontogenez va filogenezda psixik funktsiyaning o`shishini urganish uchun quyidagi xolatlariga e`tibor beradi; a) organizm extiyojini kondirish; b) Reflektor xarakat tusikka duch kelsa, ongli xarakat vujudga keladi; v) unga nisbatan extiyoj sezsa, u xolda ma`lum faoliyat turiga yunaltiladi. E Klapared «Bola psixologiyasi va eksperemental pedagogika» kitobida kizikish, motiv, extiyojlarning metodologik asarlari, bolalar tafakurining xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlari, ularda datslab umumlashtirishning sinkterligi (aralash xoltadali) uxshashlik va farklanishning bola ongida aks etishi to`g`risida muloxaza yuritadi.

Frantso`z psixologi E. Dyurkgeym (1858-1917) o`shish kishilarning xis tuygusini uzlashtirish ekanini, shu boisdan, idrok iklingan tashki fikrlar va emotsiyalar bolaning ruxiy faoliyatini ifodalashini, bola tajriba, an`ana, urf-odatlarni taklid orqali egallashini, biologiyada irsiyat qanchalik axamiyatli bulsa, taklid xam jamiyatda shunday urin tutishini uktiradi. E Dyurkgeymning fikricha, bola taklid qilish kobiliyati Bilan tug`iladi.

Frantso`z psixologi P Jane (1857-1947) psixik rivojlanishning biologik va ijtimoiy munosabatlar muammosi Bilan shugulandi.

Uning nazariyaga binoan inson psixikasi ijtimoiy munosabatlarga boglik, zotan jamiyat va tabiyat urtasidagi turli aloqalar sistemasining shaklanishi isnoning o`shishini belgilaydi. U aloqa deb, xatti xarakatni tushunadi. Bu esa kishining atrof muxitga shaxsi munosabatidan boshka narsa emas, albatta. P Janening fikricha, eng kimmatli, axamiyatli, ijtimoiy xarakat xamkorlikdagi faoliyatda uz ifodasini topadi, shaxslararo tashki munosabatlar rivojlanishning printsipi xisoblanadi. P Jane uz tadqiqotlarida psixikaning turt darajasi a0 mator reaksiyaning o`shishi4 b) prentsepat xarakatning o`shishi;

V) shaxsiy ijtimoiy xarakatning o`shishi (o`zining xarakatini boshka kishilargsha moslashtirish); g) intellektual sodda xatti-xarakatning o`shishi (nutk va tafakkurning rivojlanishi) mavjud ekanligini asoslangan

Shvetsariyalik psixolog J Piaje (1896-1980) insonning kamol topishin bir necha davrlarga ajratib urganishni tavsia qiladi.

Yosh davrlar psixologiyasi alohida predmet sifatida XIX asrning boshlarida vujudga kelgan bo`lishiga qaramay, uning mustaqil fan sifatida rivojlanishi va qaror topish yo`li ancha murakkab kechgandir. Mazkur ilmning rivojlanishiga turli dunyoqarashlar o`rtasida olib borilgan doimiy ko`rash katta ta`sir ko`rsatgan. Jamiyat tarixiy taraqqiyotining u yoki bu bosqichida qanday dunyoqarash ustuvorligiga qarab, tekshirishlar darajasi va sifati, olingan natijalarni kanday izohlash zarurligi belgilab berilgan.

O`tmishda ajdodlarimiz insonning psixologik qonuniyatlarini, muayyan ilmiy yo`nalishda o`rganmagan bo`lsalarda, biroq allomalarning qo`lyozmalarida mazkur holatlarning namoyon bo`lishi, inson kamoloti borasidagi qimmatli fikrlari hozirgacha yuksak ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, Abu Nasr Forobiy pedagogika masalalarini va ular bilan bog`liq bo`lgan psixologik, fiziologik muammolarni ijobiy hal etishda insonni har tomonlama yaxlit va o`zaro o`zviy bog`liq bo`lgan qismlardan iborat, deb aytadi. Forobiy mavjudotni bilishda ilm-fanning rol`ini hal etuvchi omil deb biladi, uningcha inson tanasi, miyasi, sezgi organlari tug`ilishda mavjud, lekin aqliy bilimi, ma`naviyligi, ruhi, entellektual va axloqiy xislatlari, xarakteri, diniy, urf-odatlari, ma`lumoti tashqi muhit, boshqa insonlar va shu kabilar bilan muloqotda vujudga keladi, inson o`z faoliyati yordamida

ularni egallaydi, ularga erishadi. Uning aqli, fikri, ruhiy yuksalishining eng etuk mahsuli bo`ladi, deb ta`kidlaydi.

Abu Rayhon Beruniy ta`lim va tarbiyaning maqsadi, vazifalari va mavqei, inson, yosh avadning rivojlanishi haqidagi fikrlari chin ma`noda insonparvarlik va insonshunoslik zamirida yaratilgan. Bilim va tarbiyaning tabiatga uyg`unlik tamoyillarini mo`tafakkirning barcha asarlarida ko`z tatish mumkin. U insonni tabiatning bir qismi deb ta`kidlaydi..

Beruniy ta`lim jarayonining tabiatiga chuqur kirib borib, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish asosida qurilgan o`qitish tabiatga uyg`unligini o`qtiradi. Beruniy pedagogik ijodida inson va uning baxt-saodati, ta`lim-tarbiyasi, kamoloti bosh masala bo`lgan.

O`rta asrda yashab, ijod etgan donishmand, tabobat ilmining doxiysi Abu Ali ibn Sino inson ruhiyati, tana va qalbning birligi, inson organizmining to`zilishi, undagi nerv faoliyati va ularning tarmoqlanishi, holatlari haqidagi qimmatli ma`lumotlari hozirga-qadar tibbiyotning muhim negizini tashkil etadi.

Yusuf Xos Hojib ijodining bosh masalalaridan biri - komil insonni tarbiyalashdir, adib o`z asarlarida eng komil, jamiyatning o`sha davrdagi talablariga javob bera oladigan insonni qanday tasavvur qilgan bo`lsa, shu asosda u o`z tamoyillarini izchil bayon etadi. “qo`tadtu bilit” (“Saodatga yo`llovchi”) asari ta`lim va tarbiya-ma`naviy kamolotning yo`l-yo`riqlarini, usullarini, chora tadbirlarini o`zida mujasamlashtirgan, axloq va odobga doir ma`naviy manbadir.

Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, “Xirandnomai Iskandari”, “Tuhfatul ahror” va boshqa asarlarida ilm-ma`rifat ta`lim-tarbiya, kasb- hunar o`rganish, inson ijobiy fazilatlarini haqidagi fikrlari ifodalangan.

Alisher Navoiyning “Xazoyinul maoniy”, “Mahbubul qulub” va boshqa shu singari asarlarida etuk, barkamol insonning axloqi, ma`naviyati, o`zgalarga munosabati, iste`dodi va qobiliyati to`g`risida qimmatli mulohazalar yuritilgan, ana shu psixologik mezonlar ijtimoiy adolatning qaror topishi uchun muhim ahamiyata ega ekani ta`kidlangan, shuningdek, Navoiy asarlarida yosh avadni barkamol inson sifatida shakllanishida ota-onaning rol`i, ayollarning iffatililigi, kishilarning kamtarligi haqidagi fikr-mulohazalari alohida o`rin egallaydi.

Navoiy “Xamsa”sining har bir dostonida bukilmas iroda, kat`iyatlilik, itoat, insonparvarlik tuyg`ulari, ijodiy xayolot, insonning murakkab ichki kechinmalari mohirona yoritilgan. Shuningdek, bu borada Mahmud qoshgariy, Ulutbek, Nahshbandiy, Ogahiy singari buyuk sharq mo`tafakkirlarining yoshlar tarbiyasiga, o`qituvchi, tarbiyachining jamiyatdan o`rni, axloq-odob, fe`l-atvor, oilaviy hayot, kishilararo munosabatlarga doir qarashlari ularning asarlarida ravon va ixcham bayon etilganligini ta`kidlash mumkin.

Takrorlash va muxokama qilish uchun savollar.

1. Go`daklik davri, uning tugma xususiyatlari va rivojlanishining o`ziga xos xususiyatlari.
2. Ilk bolalik davridagi muloqotning psixik jihatlari,
3. Ilk bolalik davridagi asosiy faoliyat guri.
4. Yoshdagi krizis: uning sabablari va namoyon bo`lishi.
5. Ilk bolalik davrida shaxs shakllanishining psixologik asoslari

MAVZU: ILK YoShDAGI VA BOGChA YoShIDAGI BOLALARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

ReJA:

1. Ilk yoshdagi va bogcha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari.
2. Go`dak bola nerv sistemasining xususiyatlari.
3. Retseptor va xarakat faoliyatining rivojlanishi.
4. Bogcha yoshidagi bolalarning sensor taraqqiyoti. 1-3 yoshli bolalarning intellektual rivojlanishi.
5. Bogcha yoshidagi bolalarning xar tomonlama va garmonik rivojlanish muommosi.
6. Bogcha yoshidagi bolalarni maktab ta`limiga tayyorlashning psixologik masalalari.

Bola bir yoshgacha bo`lgan davrda jismoniy va psixik jixatdan tez usadi. Bu davrda bola kup jixatdan ojiz bo`lib, kattalarning doimiy va to`g`ri parvarish qilishiga muxtojdir. Bolaning to`g`ri kelgusida soglom bulishi va psixik jixatdan normal o`shishi uning bir yoshgacha bo`lgan davrda to`g`ri parvarish kilinishiga bolik bo`ladi. Yangi tug`ilgan bolaning jismoniy qiyofasi o`ziga xos bo`lib, kattalarning jismoniy qiyofasidan ancha fark qiladi. Yangi tug`ilgan bola gavdasining sondan buyingacha bo`lgan qismi juda uzun, oyoqlari kalta, boshi nisbatan katta, buyni kiska bo`ladi.

Katta yoshdagi kishining boshi gavgdasining sakkizdan bir qismini, yangi tug`ilgan bolaning boshi esa gavgdasining turtdan bir qismini tashkil etadi. Yangi tug`ilgan bolaning gavgdasi yuqori qismi pastki qismiga karaganda ancha uzun bo`ladi. Yangi tug`ilgan bolaning buyi urta xisobda 48-52 sm bo`ladi. Uning yuz juda kichkina bo`ladi.

Go`dak bir minutda 50-60 marta nafas olib, nafas chikaradi. Ammo katta yoshdagi kishi esa bir minutda 16-14 marta nafas oladi. Yangi tug`ilgan bolaning nafas olish yuli xali juda tor bo`ladi. Bundan go`dakning dastlabki kunlarda toza va sof xavoga ayniqsa muxtoj ekanligi ravshan kurinib turadi. Bola urniga ungay xolatda yotkazilmasa kisib yurgaklansa uning nafas olishi uchun kushimcha kiyinchilik yuzaga keladi. Agar bola go`daklik davrida noto`g`ri parvarish kilinsa, uning skeletidagi turli qismlar turlicha, ba`zan bolaning biror eri kiyshik bo`lib o`shishi mumkin. Kupincha bunday kiyshik o`shish umurtkasida sodir bo`ladi, chunki umurtkasi suyagi juda elatsik va yumshok bo`ladi.

Bir yoshgacha bo`lgan davrda bolaning jismoniy qiyofasida katta uzgarishlar ruy beradi. Uning vazni va buyi sezilarli uzgaradi.

Keyinrok borib, vaznining ortishi bir muncha sekinlashadi.va yoshi qanchalik ulgaysa , vaznining ortishi shuncha sekinlashadi. Bola bir yoshgacha uning vazni taxminan 6 kg ga ortsa (bir yoshli bolada vazn taxminan 9 kg bo`ladi.) , keyingi 2 y davomida ya`ni bir yoshdan uch yoshgacha uning vazni 5 kg ga ortadi.(3 yoshli bolaning vazni taxminan 14 kg bo`ladi.)

Bola bir yoshga tulguncha uning gavgda qismlarining nisbatida xam katta uzgarishlar ruy beradi. Uning qo`l-oyoqlari , ayniqsa oyogi tez usadi. Kukrak kafasi uzayadi, kukrak kafasining xajmi kengayadi,buyni uzayadi, boshi gavgdasiga nisbatan kichikrok bo`lib qoladi.

Bola bir yoshga tulish oldidan uning jismoniy o`shishi atrof-tevarakdagi sharoitga ancha moslashib qoladi va tashki muxitning noqo`lay ta`siriga kamroq beriladigan bo`ladi.

Ma`lumki, bolaning psixikasi, xulk-atvori katta yoshdagi kishining psixikasidan ancha fark qiladi. Uning sababi shuki, bola psixikasining moddiy negizi bo`lgan nerv sistemasi o`ziga xos xususiyatga egadir.

Bolaning ayniqsa tug`ilganiga bir necha oygina bo`lgan bola nerv sistemasining quyi bo`limlari katta yoshdagi kishilar nerv sistemasining quyi bo`limlariga karaganda bekiyos katta rol

uynaydi. Nerv sistemasining quyi bo`limlari ancha ilgari paydo bo`ladi va tezroq etiladi. Shartsiz reflekslar nerv sistemasining mana shu qismlari orqali vujudga keladi. Shu tufayli chakalokning dastlabki tamshanish, yutish, sulak chikarish va shu kabi reflekslar kondiriladi.

Bola tug`ilganidanok unda bir kator analizatorlar normal yaxshilab turadi. Badan analizatori ana shular jumlasidandir. Yangi tug`ilgan bola badanining sezgirligi katta yoshdagi kishi badanining sezgirligidan kuchlirok bo`ladi. Shu sababli yangi tug`ilgan bolaga badaniga kattik botmaydigan kiyimlar kiydirish kerak. Tanasiga tegilsa bola turli xarakatlar bilan javob beradi. To`g`ri bu xarakatlarning kupchiligi tartibsiz tarzda, lekin juda muayyan shartsiz reflektor reaksiyalar xam bo`ladiki, bunday reaksiyalar fakat yangi tug`ilgan bolalrgina xos xarakterli reaksiyalardir. Chakalokning labiga tegishingiz bilan unda darxol emish xarakatlari sodir bo`ladi. Kaftiga qo`lingizni tegizsangiz u barmoklarini yumib oladi. Chakalokni ko`tarsangiz xam u qo`liga ushlab olgan barmoklaringizni quyib yubormaydi.

Robinzon refleksi deb ataluvchi bunday refleks bola bir necha xaftalik bo`lganida paydo bo`ladi va u ikki oyga to`lganidan keyin esa yuk bo`lib ketadi.

Bola tug`ilgan kundan boshlab , tam bilish analizatori ishlay boshlaydi. Yangi tug`ilgan bola shirinlikni , achchiqni, nordonni, shurni sezadi. Chakalokka biror narsaning mazasi yokmasa aftini bujmaytiradi. Bola ta`mi yokmagan narsadan totinmaslikka xarakat qiladi, ya`ni yuzini ugiradi.

Bola tug`ilgandan boshlab , uning xid bilish analizatori normal ishlay boshlaydi va shu tufayli xidni fark kila boshlaydi. Sassik , qo`lansa, badbuy narsalarga nisbatan bolada salbiy reaksiya paydo bo`ladi. Ta`m bilish va xid bilish analizatorlarining faoliyati bolaning ovkatga bo`lgan muxim extiyojni kondirish bilan chambarchas boglangan.

Bola tug`ilganidan keyin uning qulog`iga azon aytish kerak, shundan keyin u yaxshi eshitadigan bo`ladi, degan xurofotning bizda paydo bulishiga sabab xam shu , xakikatdan esa chakalok tug`ilgan paytda qulog`ining eshitmay kolishiga sabab shuki, qo`lokning ichi ona qornida suyuqlikka tulib qoladi. Bir oz vaktan keyin bu suyuqlik yo`qolib , ochiladi.

Kurish analizatorining takomillashmaganligishu narsada xam namoyon bo`ladiki, bola tug`ilganidan keyin dastlabkivaktda uning kuz tur pardasidagi markaziy qismlargina sezish kobilyatiga ega bo`ladi. Kuz pardasida esa rangni ajratish apparati bor.

6 oylik bo`lganida bola asosiy ranglarni va eng oddiy shakldagi narsalarni farklay boshlaydi. Eshitish va kurish analizatorlarining faoliyati mukammal emasligining sababi shundaki, bola tug`ilgan paytida uning bosh miya po`sti xali etarli ravishda rivojlanmagan bo`ladi, analizatorlarning markaziy qismlari esa bosh miya po`stida joylashgan.

Bola usa borgan sari unda juda kup yangi shartli reflekslar paydo bo`ladi. Bu shartli reflekslar tobora murakkablashib, bola psixikasining o`shida fiziologik negiz bo`lib qoladi.

Bolaning bir yoshlik davri uning psixikasining tez sur`atlar bilan o`shishi davridir.

Bola tug`ilgan kunlarda uning faoliyati fakat eng zarur extiyojlarni kondirish bilan cheklanadi. Yangi tug`ilgan bola sutkasiga 20 soatga yaqin uxlaydi. Fakat qorni ochkaganida, chankaganida, sovukni sezganida uygonadi. Extiyoji qondirilginidan keyin yana uyquga ketadi. Bu davrda uxlashni bolaning normal xolati deyish mumkin.

Uzok (uxlashdan keyin) tufayli bola energiyasining asosiy qismi uning tez o`shiga va jismoniy jixatdan chinikishiga sarf bo`ladi, chunki yuqorida aytib utilganidek, bola tug`ilganidan keyingi dastlabki vaktlarda jismoniy jixatdan ayniqsa tez usadi.

Bola sekin kamroq uxlaydigan bo`ladi va atrofdagi narsalarning ta`siriga ko`proq qiziqadigan bo`ladi. Bir oylik bola narsalarning xarakatiga karab, boshini burishi mumkin, ikkinchi oyga

utganda u tovush kelgan tomonga karab boshini buradi, keyinrok esa ovozni eshitib, gapirgan kishini ko`zi bilan kidira boshlaydi.

Bolaning miyasi tobora ko`proq taassurot oladigan bo`lib qoladi, bu esa yanada rivojlanishga yordam beradi.

Bu vaqtlarda kelib bolada xamma analizatorlarning shartli reflekslari mutsaxkamlanadi. Ayrim bir butun qilib boglaydigan shartli reflekslar vujudga kelishi natijasida bola narsani yaxlit xolida idrok qiladigan bo`lib qoladi. U tevarak- atrofdagi narsalarni idrok kila boshlaydi. Chunonchi, bola tug`ilgandan boshlab, onasining ovozi eshitadi. Badaniga onasining qo`li tekkanini sezadi, onasining aftini ko`radi.

Bolaning idroki bilan xarakatlari urtasidagi boglanish tobora mutsaxkamroq bula boradi. Bola aktiv xarakat qilish bilan o`zining juda xilma-xil xarakatlari bilan tevarak- atrofidagi narsalarni bilib oladi.

Bolada ixtiyorsiz diqqat xam usadi. Bola tug`ilgan paytlarda uning e`tiborini asosan o`zining organikextiyojlarini kondiradigan narsalar jalb kilar edi. Endi bolaning diqqatini ung yaqinrok bo`lgan xilma-xil narsalar jalb qiladi. Xarakatda bo`lgan yaqinrok tovush chikaradigan narsalar bolaning diqqatini ko`proq jalb qiladi.

Bu yangi xarakatlarning paydo bulishi bolaning tevarak-atrofdagi narsalarni bilishini yanada aktivlashtiradi. Bola o`zining qo`llarini, boshini timiskalab, ushlab ko`radi. Oyogini qo`li bilan ushlab, ogziga tortadi. O`ziga yaqin turgan narsaga kizikib karaydi, qo`l uzatib, uni ushlab oladi.

Bunday xarakatlarni kila olish bolani kuvontiradi, u oyoqlarini pitirlatadi, qo`ladi, guvguvlaydi. Ushlab olgan narsasini silkitib ko`radi, sungra uni og`ziga solmoqchi bo`ladi.

Bola uch-turt xaftalik bo`lganidayok, unda xarakat xotirasining dastlabki kurinishlari paydo bo`ladi. Birinchi shartli refleksning vujudga kelishi ana shunday dalolot beradi. Agar bolani emizgan vaktidagidek qo`liga olinsa, u tamshanib, emishiga xarakat qiladi. Bola xarakatining usa borishi bilan uning xarakat xotirasi xam usadi. Uch-turt oylik bolada yaqqol obrazli xotira paydo bo`lganligini kuramiz.

Kattalarning aytgan so`zlarini tushunish bolada xotiraning o`sib borayotganligini kursatadi. Olti-etti oylik bola oti aytilgan narsani biladi va uni kursatib beradi.

Go`dak xarakatlarining takomillasha borishi uning psixikasining yanada ko`proq eplashtiradigan bo`lib qoladi. Besh oylik bola yonboshlab agdarilishi, sungra esa qornini erga berib yota olishi mumkin. 7-8 oylik bola odatda karovotni yoki boshka bir narsani ushlab tik tura oladi. Endi murakkabrok xarakatlar kila boshlaydi. Karovotning setkasini ushlaydi, sungra unga osilib chukkalab turadi. Oldingi bir oyogini quyib oladi va nixoyat, urnidan turadi.

Jismoniy jixatdan yaxshi usgan bola 9-10 oylik bo`lganidan yura boshlaydi. Datslab bola biror narsani ushlaymay, o`zi mutsakil ravishda tik turadi, kiyinchilik bilan bulsa xam uz muvozanatini saklaydi. Sungra kurka-pisa birinchi kadamlarini quyib alpinib-tolpinib yura boshlaydi.

Bola 6 oyga to`lganidan keyin xali gapirma xam, lekin unda nutksiz tafakkur elementlari paydo bo`ladi. Aslini olganda, bola biror narsani yoki kimsani tanishni urgangan vaktdan boshlab unda tafakkur elementlari bo`ladi. Xar-bir narsani tanib olish utgan tajriba asosida shu narsani fikrlashni takoza qiladi. Bola biror yangi narsani bilishi bilan uni ilgari kurgan narsalari bilan takkoslaydi, ularning bir-biriga uxlashligini yoki bir-biridan farkini belgilab oladi. Nutk paydo bulishi va o`shishi bilan bolaning tafakkuri yanada usadi.

Bola nutkning o`shishi uchun kerakli asos, uning go`daklik davrida vujudga keladi. Chinakam nutk go`dakning davridan utgandan keyin shakllanadi, lekin shunga karamay, go`dak bolada nutkning dastlabki belgilari uning psixikasini utsirishda juda katta rol uynaydi.

Bola 8 oylik bo`lganida kattalarning gapini tushuna boshlaydi. Dastlab u intonatsiyaga va mimikaga ko`proq e`tibor beradi. Intonatsiyani , ya`ni ovoz oxangini uzgartirish bilanok , bola kattalarning gapini tushunmay qoladi.

To`g`ri, bir yoshga tulguncha bolaning so`zlari o`ziga xos bo`ladi, asosan taklid tarikasidagi va tovushga taklid qilib aytilgan so`zlar bo`ladi.

Bola nutkining bunda keyingi o`shishi kup jixatdan kattalarning gapiga taklid qilish yuli bilan boradi. Bola kattalarning so`ziga taklid, yangi so`zlarini urganib oladi, shu so`zlarni jumla tarikasida boglab ifodalashni urganadi. U kattalar bilan gaplashish va muomala qilish yuli bilan yangi-yangi so`zlarni urgana boradi.

Bola bir yoshga tulguncha nutk va tafakkurni egallashga birinchi kadamlarnigina kuyadi. Bola bogcha yoshiga etguncha uning tafakkuri va nutki yanada usa boshlaydi.

Organizmning xayoti va taraqqiyoti uchun mutlaqo zarur bo`lgan tabiiy extiyojlar tufayli bolada dastlabki xsilar paydo bo`ladi va dastlabki paytlarda uning xislari shu tabiiy extiyojlar doirasi bilan cheklanadi.

Tuyish yoki ochlik, issiklik yoki sovuk kotish, kanoatlanish , roxatlanish yoki norozilik tugdiradi.

Bular bolaning tugma xislari bo`lib, bu xislarning fiziologik asosi tabiiy uz-o`zidan saklash shartsiz reflekslari kurinishlarning xissiy formasidir.

Tug`ilgandan keyin dastlabki oylarda bolada chuchish xissi xam paydo bo`ladi. Bola gavdasining xolati tusatdan uzgartirilsa, tusatdan birov bakirib yuborsa yoki biror narsa takillab ketsa, bola bigillab yiglay boshlaydi. Nafasi kisilib qoladi. Mimika xarakterli tusga kiradi. Fiziologik jixatdan karaganda bolaning bu xolatini shu bilan izoxlash mumkinki, bu xolat bosh miya po`stida tormozlanish protsessining keng yoyilganligini ifodalaydi, buning natijasida bosh miya po`stining tartibiga soluvchi faoliyat tuxtab qoladi va endi bolaning xarakatini nerv sistemasining quyi bo`limlari boshkaradi.

Bolaning xarakatini sikibquyish unda norozilik va xatto gazab xissini tugdiradi. Aksincha bolaning aktiv faoliyatida bulishi uchun imkoniyat beradigan xarakat erkinligi , unga xuzur baxsh etadi, uni kuvontiradi. Bola yangi narsaga kizikib karaydi, sungra uni qo`li bilan ushlab kurmokchi bo`ladi, uyinchoklarni uynaydi, uyinchoklarni tashlab yuborib va ularning takillab tushgan tovushini eshitib xuzur qiladi.

Go`dak davrida bolada kelajak iroda protsesslarining boshlangich elementlari paydo bo`ladi. Biz bu erda to`la ma`nodagi iroda protsesslari to`g`risida xali gapira olmaymiz. Bular iroda protsesslarining fakat ayrim elementlari bulsa xam, lekin bola irodasining o`shishi katta axamiyatga ega.

Bola 6 oyga to`lganidan keyin uning xarakatlarida kattalarning xarakatlariga taklid qilish katta rol uynaydigan bo`lib qoladi. Bu vaktida bola uz xarakatlarning maksadini unchalik anglamaydi. Oldingi anglab, sungra xarakat kilmaydi, balki xarakat bilan maksad ayni vaktida paydo bo`ladi.

Bir yoshga tulish oldidan bolaning nutki usa borgan sari akli xam tez orta boradi. Natijada irodaviy protsesslarning yanada tarakkiy etishiga yul ochiladi. Endi u uz xarakatlarining maksadini yaxshirok anglaydigan bo`lib qoladi, kattalarning aytganini qiladi, unchalik murakkab bulmagan iltimoslarini bajaradi. Mana shularning xammasi irodaning o`shishiga yordam beradi.

Bola bir yoshga etguncha unda dastlabki xam ijobiy, xam salbiy odatlar paydo bo`ladi. Muayyan vaktida emishga odatlanish juda erta paydo bo`ladi. Bola 6 oyga to`lganidan boshlab, yuvinishga odatlanadi. Shu bilan bir katorda bolada salbiy odatlar xam «qo`lga urganish» fakat tebratgandagina uxlash, barmogini ogziga solib surish kabi salbiy odatlar xam juda erta paydo bo`ladi. Shartli reflekslar odatlanishning fiziologik asosidir.

Bolada yoshlik chogidan boshlab o`ziga xos xususiyatlari borligini kuramiz. Bu xususiyatlar temperament bilan boglik bo`ladi. Bolaning umuman xarakatchanligi, ta`sirlarga tez berilishi, yangi xarakatlarni tez urganib olishi, bolaning kayfiyati mana shularning xammasida bola temperamentining xususiyatlari sezilib turadi.

Ma`lumki, temperament bilan boglik bo`lgan individual xususiyatlarga tarbiyaviy ta`sir utkazish juda kiyin bo`ladi. Birok bolaning yoshligidan boshlab bu ish to`g`ri yulga quyilsa, xar kaday temperamentli bola xarakterida ijobiy sifatlarni tarbiyalash mumkin.

Birinchi davr- yangi tug`ilgan chakalok (taxminan 2 oygacha bo`lgan) davrdir. Bu davrda bola jismoniy jixatdan xali juda zaif bo`ladi, shu bilan birga, u jismoniy jixatdan nixoyat darajada tez usadi va rivojlanadi. Bu davrda eng asosiy vazifa, bolani parvarish qilish, uning jismoniy jixatdan normal o`shishini va rivojlanishini ta`minlash, uyqu, ovkatlantirish va shu kabilar soxada rejimga rioya qilishdan iborat.

Ikkinchi davr – go`daklik (taxminan ikki oylikdan to yura boshlagunga bo`lgan) davrdir. Bu davrda bolaning psixikasi nixoyat darajada tez usadi. Kattalarning bu davrda bolaning psixikasini utsirishga muttasil xarakat qilishi kerak.

Mana shu ikki davrning o`ziga xos xususiyatlarini xisobga olib, bolaning o`shida biz yuqorida aytib utgan juda katta muvaffakiyatlarga erishmok uchun butun shart-sharoitni yaratib bera olamiz.

Shuni alohida ko`rsatish joizki, 1,6 3 yoshlar nutqning rivojlanishi uchun senzitiv davr hisoblanadi. Bu davr aqliy rivojlanishning asosini, idrok va tafakkur harakatlarining yangi ko`rinishlarini tashkil etadi. 1 yoshli bola predmetlarni izchil, sistemali ravishda ko`rib chiqa olmaydi. U asosan predmetning qandaydir bir ko`zga tashlanib to`radigan belgisiga o`z e`tiborini qaratadi va predmetlarni shu belgilariga ko`ra taniydi. Keyinchalik yangi idrok harakatlarining egallanishi bolaning predmetli harakatlarini bajarishdan ko`z bilan chamalab, harakat qilishiga o`tishda namoyon bo`ladi, endi u predmetning bo`laklarini ushlab ko`rmasdan, balki chamalab idrok eta oladi. 2,5-3 yoshli bola kattalarning ko`rsatgan namunasi, rangi shakli va kattaligiga ko`ra, aynan shunday predmetlarni chamalab, idrok etgan xolda tug`ri topa oladi. Bolalar avval shakliga, so`ngra kattaligiga va undan keyingina rangiga qarab ajrata oladilar. Bu jarayonda bola bir xil xususiyatga ega bo`lgan juda kup predmetlar mavjudligini tushuna boshlaydi. Lekin, bola rasm chizishni boshlagani davrida predmetlarning rangini e`tiborga olmaydi va o`ziga yoqadigan ranglardan foydalanadi. Tadqiqotlarning ko`rsatishicha 2,5-3 yoshli bola 5-6 ta shaklni (doira, kvadrat, uchburchak, to`g`riburchak, ko`pburchak) va 8 xil rangni (kizil, qovoq sariq, sariq, yashil, ko`k, siyohrang, oq, qora) idrok etishi mumkin. Rang va shakllarning maqsadga muvofiq ishlatilishi jihatidan turli xil narsalarda turlicha namoyon bo`lishi sababli, bu yoshdagi bolalar ularni idrok etganlari bilan ularning nomlarini aniq bulishlari va o`z nutqlarida ishlata olishlari birmuncha qiyinroq. Kattalarning bu yoshdagi bolalardan ana shu rang va shakllarni eslab qolishini talab etishlari birmuncha noto`g`ridir, buning uchun mos davr 4-5 yoshlar hisoblanadi.

Bola 3 yoshigacha o`zlashtirgan so`zlar asosan predmet va harakatlarning nomlarini bildiradi. Nomlar asosan uning vazifasini anglatadi, bunda predmet yoki harakatning tashqi ko`rinishi o`zgarsa ham uning nomi o`zgarmaydi. Shuning uchun ham bola predmetlarning nomlarini ishlatilishini funktsiyalariga bog`lagan holda tez o`zlashtiradi.

Ilk bolalik davrining boshlariga kelib, bolada birinchi tafakkur operatsiyalari yuzaga keladi. Buni bola biror predmetni olishta harakat qila olganidan so`ng, uni sinchiklab o`rganishida ko`rishimiz mumkin. Ularning tafakkurlari, asosan, ko`rgazmali-harakatli bo`lib, u atrof olamdagi turli bog`liqliklarni o`rganishga xizmat qiladi. o`zidan o`zoqroq turgan koptokni biron-bir o`zunroq narsa bilan itarib

yuborish mumkinligini ko`rgan bola, endi mustaqil ravishda divan tagiga kirib ketgan koptokni tayoqcha yordamida olish mumkinligini tafakkur eta oladi, Bu davrdagi bolalar tafakkurida umumlashtirish katta o`rin-to`tadi. Umumlashtirishda nutq muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, soat deyilishi bilan bola qo`l soatini yoki devordagi osma soatni ham tushunishi mumkin, Lekin, ular turlicha bo`lganligi bois, ularda umumiylikni topish bola uchun birmuncha qiyinroq hisoblanib, bu borada fikrlash yordamga keladi va umumlashtirishni tashkil etadi.

2-3 yoshli bolalar ma`lum bir predmetlarning o`rniga ularning o`rnini bosishi mumkin deb hisoblagan boshqa narsalardan ham foydalanadilar. Masalan, o`yin jarayonida bola qoshiq yoki termometr o`rnida, yogochdan yasalgan krovat yoki mashina o`rnida foydalanishi mumqin. Bir predmetni boshqasi o`rnida qo`llaniladi.

Uch yoshgacha bo`lgan bolalarning psixik rivojlanishidagi asosiy yangi o`zgarishlar.

Yosh davrlari	Bilishi	Harakati	Muloqoti
3 yosh	Nutqning shakllanishi. Obrazli tafakkurning dastlabki nishonalari. Atrof muhitdan o`zini ajratishi. Qat`iylikni anglash.	Qo`l predmetli harakatlarning rivojlanganligi. O`z hatti harakatlarini irodaviy boshqarishning ko`rinishlari	O`z-o`zini anglashni yubzaga keldishi, Dastlabki axloqiy qoidalarni egallashi
2 yosh	Faol nutqni tushunishi va o`zida yuzaga kelishi	Qo`l va oyoq funktsiyalariningg aniq belgilanishi	Harakter asoslarining shakllanishi
1 yosh	Nutqni tushunishning dastlabki belgilari	Mustaqil Holda tik turish va yurish	Nutqni qo`llashning dastlabki belgilari
10 oylik			Bog`liklik reaksiyasini yuzaga kelishi begona muxit va begonalar orasida xavotirlik
8 oylik	Sensamotor intellektning yuzaga kelishi	Tayanib yurishi	Jest, mimika va pantomimika yordamida noverbal muloqoti
7 oylik		Yordam bilan turishi	
5 oylik.		Yordam bilan o`tirishi	
3 oylik	Ko`rish qobiliyatining shakllanishi	Yon tomoniga o`tirilishi	Onaning jilmayishiga javob qaytarishi
2 Hafta	Onaning tovushini boshqa tovushlardan farqlashi		
1 Hafta	Harakatlarni ko`zatishi •		

Ilk bolalik davrining boshlariga kelib, bolada birinchi tafakkur operatsiyalari yuzaga keladi. Buni bola biror predmetni olishda Harakat qila olganidan so`ng, uni sinchiklab o`rganishida ko`rishimiz mumkin. Ularning tafakkurlari, asosan, ko`rgazmali-Harakatli bo`lib, u atrof olamdagi turli bog`liqliklarni o`rganishga xizmat qiladi. o`zidan o`zoqroq turgan koptokni biron-bir o`zunroq narsa bilan itarib yuborish mumkinligini ko`rgan bola, endi mustaqil ravishda divan tagiga kirib

ketgan ko'ptokni tayoqcha yordamida olish mumkinligini tafakkur eta oladi, Bu davrdagi bolalar tafakkurida umumlashtirish katta o'rin-to'tadi. Umumlashtirishda nutq muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, soat deyilishi bilan bola qo'l soatini yoki devordagi osma soatni Ham tushunishi mumkin, Lekin, ular turlicha bo'lganligi bois, ularda umumiylikni topish bola uchun birmuncha qiyinroq Hisoblanib, bu borada fikrlash yordamga keladi va umumlashtirishni tashkil etadi.

2-3 yoshli bolalar ma'lum bir predmetlarning o'miga ularning o'mini bosishi mumkin deb Hisoblagan boshqa narsalardan Ham foydalanadilar. Masalan, o'yin jarayonida bola qoshiq yoki termometr o'mida, yogochdan yasalgan krovat yoki mashina o'mida foydalanishi mumqin. Bir predmetni boshqasi o'mida qo'llaniladi.

Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar.

1. Bog`cha yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlari.
2. Bog`cha davrida bola shaxsishntg rivojlanishi shart-sharoitlari.
3. Bog`cha yoshidagi bola faoliyatining psixologik xususiyatlari.
4. Bog`cha yoshdagi bolada xulq motivlarining rivojlanishi va o`ziga baho berishi shakllanishi.
5. Bog`cha yopshdagi bolada bilish jarayonining rivojlanishi.
6. Bog`cha yoshdagi bolaning maktabdagi ta`limga psixologik tayyorgaligi.

KICHIK MAKTAB YoSHI DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

ReJA:

1. Kichik maktab yoshi davri haqida umumiy tushuncha.
2. Kichik maktab yoshi davrida o'quvchilarda bilish jarayonlarining rivojlanishi.
3. Kichik maktab yoshi o'quvchilarining jismoniy taraqqiyoti.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishi.
5. Bolaning maktabga psixologik tayyorgarligi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarning 7-8 yoshdan 10-11 yoshgacha bo'lgan bolalar bo'lib, ular boshlang'ich sinf o'quvchilari hisoblanadi. Bu yillarda bolaning hayoti va faoliyatida muhim o'zgarishlar yuz beradi. Binobarin, ularning psixikasida ham sezilarli darajada o'zgarishlar bo'ladi. Bolaning maktabga kirishi uning hayotida buriqish chog'idir. Bola maktabga kirib o'qiy boshlashi bilan o'q. uning hayotida asosiy faoliyat o'qish bo'lib qoladi. O'qish o'quvchining vazifasi, ijtimoiy burchidir. O'qituvchi bilan birinchi uchrashuvda o'q. bolalar ko'p narsalarni eshitadi va maktabdagi o'qish haqida ko'p narsalarni bilib oladi va o'qishning nimaligini anglay boshlaydi. Maktabda bola sistemali ravishda yangiliklar oladi. Bu o'quvchining kundan-kunga orttirib borayotgan, xilma-xil mazmundagi bilimlarning manbaidir. Bolaning bilimlarni sistemali ravishda o'zlashtirib borishi natijasida undagi bilimning doirasi ham kengayib boradi, aqliy jarayonlar rivojlanadi, shu bilan bir qatorda, bolaning emotsional va irodaviy xususiyatlari qayta tarkib topib, rivojlana boshlaydi. Maktabdagi talim jarayonining o'zi bolaning sezgi, idrok, tafakkur, nutq va diqqatlariga yangi talablar qo'yadi. Maktabdagi o'qish, tashkiliy muayyan maqsadga qaratilgan ancha ixtiyoriy protsesslar talab qiladi. Ko'rish sezgisi bilan idrok maktab ta'limida katta o'rin egallaydi. Gap shundaki, odam tashqi dunyodan keladigan axborotning asrsiy qismini ko'rish retseptori faoliyati orqali oladi. Ya'ni ko'rish retseptori orqali olinadigan axborot hamisha boshqa retseptorlardan keladigan axborotning 80 % ga to'g'ri keladi. O'quvchilarga dars paytida o'z diqqat e'tiborini uzoqdagi predmetlarga doimiy ravishda ko'chirib turishga to'g'ri keladi.

- **to`rtinchidan**, ijtimoiy, axloqiy o`z-o`ziga baxo berishning ma`lum sistemasini anglashi. Mana shu elementlarniNg barchasi bir-biri bilan funktsional va genetik bog`langandir. Lekin, bularning hammasi sizga ma`lumki, bir vaqtning o`ziDa□shakllanmaydi. Bolaning "men"ligini anglashi taxmIni 3 yoshDa paydo bo`ladi, bunda bola shaxsiy olmoshni ishlata boshlaydi. Masalan: men, meniki, meNdan va hOkazo, o`zining psixik sifatlarini Anglash va□o`z-o`ziga berisH o`spirinlik yoshida, borgan sari ko`proq ahamiyat kasb eta boshlaydi.

O`spirinlar har joyda o`zini ko`rsatIsh xususiyatiga ega bo`lgan usMIrlik vAqtidayoq, □o`zlarining shaxsiy xususiyatlarini ko`zata□boshlaydilar. Ya`ni o`zlarining tashqi qiYofalariga tanqidiy qaray boshlaydiLar: bo`yining pastligi yoki aksinchasi, semizlik, yuzidagi xusunbo`zarlar yigit va qizlarni bezovtalantiradi, ular iztirob Chekadilar. □Kech etiladigan ug`il va qizlar yashirin kechinmalar keechiradilar.□ Kishining o`z obrazi - bu□ o`spirinlikning o`zini anglashi ancha mUhim komponEnt bo`lib hisoblanaDi.

O`Spirinlikda□o`z shaxsiy xislatlariga baho berish kuchayadi uspirin ham usmir singari o`z qaDr-qimmatini, uniNg nimalarni qilisHga arzishi Va nimalarga qodir ekanligani Benihoya bilgisi keladi. O`ziga baho berish iKkita usulda bo`ladi.

I.Kishi o`zi qo`lga kiritgan YUtuqlArI natijasi biLan bahoLayDi. Masalan: bola qiyin vAziyatDa o`zini yo`qotmayDi yoki yosh bolani yong`inDan qutqazDi - "Men qo`rroq emasman" deYdi. Ma`lum qiyin Topshiriqni bajAradi. "Men qobiLiyatliman - deydi, AXloqga oid bunday xatti-xara{atlar, uspirinning o`z qAt`iyiligini sinashi hamdir.

II. Ijtimoiy taAqqoslash, ya`Ni o`zi haqidagi boshqa ishlarni Fikrlarni solIshirishdan iboratdir. Masalan□ o`quvchilar Tomonidan "mardlik deb ma`qullangan xatti harakatni o`qituvchi "qalbaki o`rtoqlik" deb ataydi. Bunda bolalAr o`z xaTTi-harakatlari tug`Risida uylab, bosh qotira boshlayDilar. Shaxsiy "men" obrazi, jUda murakkabdir. Hatto kattalarning o`zini anglashi qarama-qarShIlklardan holi emAs. O`spirinlarda yanada kuchliRoq bo`ladi. Ba`zi uspirinlar o`zini ko`zatish uchun kundalik daftarlar to`tAdi. Bu hoLat□qiZlarda eRtArOk, va ko`proq uchraydi. Bu holat shunchaki usishni bildirib qolmasdan, balKi shaxsda mOhiyat JihatiDan tubdAn boshqacha tarzda o`z shaxsiyatining ma`naviy-ruhiy fazIlatlarini, ijtimoiy turmush tarzi, maqsad va vaZifalarini anglashi, ularni oqilona baholash zaruratini aks ettiradi. Undagi o`z-o`zini anglash, turmush yashash, o`qish, mehnat va sport FaOliyatlarini tArzi bilaN namoyon□bo`ladi. O`quv muassasa,□Mikrom uhitidagi oDatlanmaGan vAziyat, shaxSlararo munosabatlar va muomala ko`lamining kenGAyiShi o`ziga xos topologik aqliy, axloqiy, irodaviy, hissiy xUususiyatlarini oqilona baholash, qo`yilayotgan talablarga javob berish tariqasida□yondashish,□o`z-o`zini anglashini jaDallastiradi. o`spirin O`quvchilarining o`z-o`zini anglashga aloQador o`ziga xos xususiyatlari□mavJud. Ular dastavvAl o`zlarining kuchli va zaif jixatLarini, yutuq va kAmchIlklarini anQisqKina□qushchinko`niyatingilga doirAdilar. Boladan o`zgacharoq yana Bir xususiyaTi - bu, MUrakkab shaxslararo munosabatlarda aKs etuvchi burch, vijdon hissini anGlash, o`z qaDr-qimmatani e`zozlashI, Sezish va fahmlashga ko`proq moyilligidir. O`spirin o`qUvchida o`zini anglasHi negizida o`zini taRbiYalash istagi tug`iladi. Natijada unda o`z-o`zidi tarbiyalash vositalarini saralash, ularni kundaliK turmushga tadbiq qilib ko`risH ehtiyoji vujudga keladi. Lekin, o`z-o`zini tArbiyalash jarayoni o`spirin ruhiyatidagi mavjud nuqsonlarga barham berish. ijobiy xislatlarni shakllantirish bilan kifoYalanib qolmasdan, balki voyaga etgan kishilarga xos ko`pqirrali Umumlashgan idealga mos raVishda tarkib

toptirishga yo'naltirilgan bo'ladi. O'quvchilar o'zida shaxsning eng qimmatli fazilatlarini, o'quv va mehnat malakalarini ongli, rejali, tartibli, izchil va muntazam ravishda egallab borishga, shaxsning yana bir fazilatlarini va xislatlarini hosil qilishga harakat qiladilar; O'z-o'zini tarbiyalash muammolarini, yaxlit ma'naviy-ruxiy qiyofalash shakllantirishga intiladilar. O'z-o'zini tarbiyalash jarayoni. O'quv muassasasi, jamoat tashkilotlari, pedagoglar jamoasining ta'siri doirasida bulmogi shart. Toki o'z-o'zini tarbiyalashning, takomillashtirishi jamoada munosib o'rin egallashga, ijtimoiy burchni anglash, foydali mehnatga jalb etish ishiga xizmat qilsin. O'z-o'zini tarbiyalash to'g'ri, izga solib yuborish uchun uyg'un birlikni tashkil etgan tarbiyaviy choratadbirlar majmuasi tarzida ta'sir jamoa majburiyati, o'zaro yordam va nazorat qilish, o'zaro va tanqid qilish kabilar maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy

turmushda uchraydigan baʼzi □ bir yaramas yurish-Turish koʻrishlariGa, iLlatlarigA, sarqitlariga qaqshatkich zarba berish, ularning taʼsiri yigit va qizlarni asrash, yot tashviqot mohiyatiga qarshi koʻrash olib borish pedagoglar jamoasining bosh vazifasidir. Oʻspirinlarda balogʻatga etganlik tuygʻusi takomillashib borib, oʻz-oʻzini qaror toptirish, oʻz maʼnaviy qiyofasini ifodalash tuygʻusi oʻsib oʻtadi. Bu narsa ularning alohida shaxs ekanligini tan olishga intilishida oʻz ifodasini topadi. Buning uchun ayrim yoshlar turli modalarga mayl qoʻyish, tasviriy sanoatga, musiqaga, kasb-hunarga, tabiatga, maftunkor qiziqishlarini namoyish qilishga harakat, qiladilar, oʻquv va mehnat jamoalari taʼsirida matonat, jasurlik, sabr-toqat, kamtarlik, intizomlilik, alollik kabi insoniy fazilatlar takomillashadi. Xudbinlik, loqayddik, munofiqlik, laganbardorlik, dangasalik, qoʻrqqoqlik, gʻayirlik singari illatlarning barham topishi tezlashadi.

Oʻspirinlar shaxsining shakllanishi jarayonida jamoat tashkilotlarining roʻli alohida ahamiyat kasb etadi. Ularda faollik, tashabbuskorlik, mustaqillik, qatʼiyatlik, masʼuliyatlik, oʻz harakatlarini tanqidiy baholash singari fazilatlar barqaror xususiyat kasb etib boradi. Oʻspirin yigit va qizlarning jamoatchilikda faol ishtirok etish orqali muayyan tashkilotchilik qobiliyati namoyon boʻladi. Oʻzining kimligi, qandayligi, qobiliyatlari, oʻzini nimaga hurmat qilishini aniqlashga intiladirlar. Dust va dushmanlarining kimligi, oʻz istaklari, oʻzini va tevarak-atrofni, olamni yaxshi bilishi uchun nima qilish kerakligini anglashga harakat qiladi. Maʼlumki, oʻspirinlarning hamma savollari anglangan boʻlmaydi. Baʼzan oʻspirinlar oʻzlaridan hech qanoatlanmaydigan, oʻz oldilariga haddan tashqari kup vazifalar qoʻyadigan, Lekin uning uddasidan chiqa olmaydigan boʻladi. Mana boʻlardan koʻrinib turibdiki, oʻspirinlar oʻz-oʻzini analiz qilish teranligi va yuksak talablarni bajarish kerakligini oʻzida aks ettira boradi. Bu esa uspirinlarning kelgusi yutuqlari shartlaridan biridir.

Oʻz-oʻzini hurmatlash va uning xususiyatlari quyidagilardan ibdrat, Demak, yuqorida koʻrsatib oʻtilganidek, shaxsning erta oʻspirinlikdagi eng muhim xislatlaridan biri oʻz-oʻzini, hurmatlash, oʻz-oʻziga baho berish hamda oʻzviy shaxs deb tan olish yoki olmaslik darajasidir. Oʻspirinlar oʻzlarida shaxsning muayyan kompleks sifatlarini hosil qilishga intiladilar. Oʻz-oʻzini tarbiyalash masalalarida bir butun maʼnaviy psixologik qiyofasini shakllantirish masalasi qiziqtiradi. Bunda shaxs ideali va naʼmunaning mavjudligi katta ahamiyatgʻa ega. Masalan; ugʻil bolalar, qahramonlik, yaxshi ota, oʻqituvchi, vrach yoki badiiy asar haqida kinofilʼmdagi obrazlarni oʻzlariga ideal deb bilsalar; qizlarimiz mehnatkash ayol, jozibali jamoat arbobi, nazokatli uy bekasi yoki ilmiy xodim va hokazo. Oʻzaro munosabat va emotsional hayot oʻz mavqeini belgilashning murakkab muammolarini uspirinlar oʻzi hal qila olmaydi. Bu masalani uspirinning ota-onasi, oʻz tenpurlari, oʻqituvchilar ishtarakida ularning qullab-quvvatlashida hal qila oladi.

Takrorlash va muhokama qilshp uchun savollar.

1. Ilk oʻspirinlik davrida psixologik jarayonlarning shakllanish xususiyataari.
2. Oʻspirinlikdagi aqliy rivojlanish bilan etakchi faoliyatlar oʻrtasidagi bogʻliqlik.
3. Umumiy va maxsus layoqatlarning rivojlanishi.
4. Oʻspirinlik davrida kasb tanlashning oʻziga xos xususiyatlari.

Tayanch soʻz va iboralar:

Uspirinlik. Kasb tanlash. Kasbga yullash. Urtoklik. Doʻstlik. Oila xakida kaygʻurish. Jamiyatga foyda keltirish orzusi.

TALABALARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

Reja:

- TALABALARDA MUTSAQIL BILIM OLISHNI SHAKLLANTIRISH
- TALABALARDA BILIM OLISHNI SHAKLLANTIRISH YUZASIDAN OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR.
- TALABALAR TAFAKKURINING XUSUSIYATLARI
- O'QITUVCHI VA TALABALANING HAMKORLIGI – TA'LIM SAMARADORLIGINING MUHIM OMILI.

Tadqiqotlarda talabalar deganda moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishda ijtimoiy hayotga mutaxassislikka oid rollarni muayyan qoida va maxsus datsur asosida bajarishga tayyorlayotgan ijtimoiy guruhi tushuniladi.

Oliy o'quv yurtidagi ta'limning o'ziga xos xususiyatlari talabalarning boshqa ijtimoiy guruhlar bilan (ular xoh rasmiy, xoh norasmiy bo'lishidan qat'iy nazar) muloqotga kirishi uchun muhim imkoniyat yaratadi. Talabalik davrinin asosiy xususiyatlaridan biri ijtimoiy etuklikning jadal surat bilan ro'yobga chiqishidir. Talabalik davri o'spirinlikning ikkinchi bosqichidan iborat bo'lib, 17—22-25 yoshni o'z ichiga oladi va o'zining qator betakror xususiyatlari va qarama-qarshiliklari bilan xarakterlanadi. Shu boisdan o' o'spirinlik davri shaxsning ijtimoiy hamda kasb mavqeini anglashidan boshlanadi. Mazkur pallada o' o'spirinlik o'ziga xos ruhiy inqiroz yoki tanglikni boshidan kechiradi, jumladan

kattalarning har xil ko'rinishdagi (unga yoqish yoki yoqmasligidan qat'iy nazar) rollarini te'z sur'atlar bilan bajarib ko'rishga intiladi, turmush tarzining yangi jihatlariga {opnyka boshlaydi. Katta odamlarning turmush tarziga o'tish jarayoni shaxsning kamol topish xususiyatlariga bog'lik ichki qarshi kelishmovchilikni o'z ichiga oladi. fanida ma'lumki, O'rta maktab o'quvchilari har (biologik, fiziologik, pedagogik; psixologik) jixatdan oliy maktab ta'limiga tayyorlaydi va ularda umumlashtirish, mavhumlashtirish, sitsemalashtirish kabi qobiliyatlarda ko'rinadigan fazilatlar namoyon bo'ladi. Shu bilan birga o' o'spirinda aqliy, axloqiy etsetik va g'oyaviy-siyosiy jihatdan muayan darajada o'sish ro'y beradi. Shunga qaramay, ular oldida oliy o'quv yurtida mutaxassislikni egallashga bog'liq yangi vazifalar paydo bo'ladi.

Talabalarga mutsaqil bilim olish, o'z faoliyatini o'zi tashkil qilish, o'zini o'zi boshqarish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va hokazolarni o'rgatiladi. Bu vazifalarni amalga oshirishning asosiy omili — monologik ma'ruzadan dialogik (talaba va o'qituvchining muloqotiga asoslangan) ma'ruzaga o'tishdir.

Psixologlardan B. G. Anan'ev, N. V. Kuz'mina, N. F. Talizina, V. Ya. Lyaudis, I. S. Kon, V. T. Lisovskiy, A. A. Bodalev, A. V. Petrovskiy, M. G. Davletshin, I. I. Ilqyasov, A. V. Dmitrieva, Z. F. Esareva, A. A. Verbiqiy, V. A. Tokareva va boshqalarning tadqiqotlariga ko'ra, oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish talabalar uchun juda og'ir kechadi, chunki bu davrda shaxsning murakkab fazilatlarini, xislatlari, sifatleri takomillashish bosqichida bo'ladi. Mazkur yosh davridagi ijtimoiy-psixologik o'sishning xususiyatlaridan biri o'qish faoliyatining ongli motivlari kuchayishidir. Talabalarda axloqiy jarayonlarning o'sishi suts amalga oshsada, lekin xulqining eng muhim sifatleri — mutsaqqillik, tashabbuskorlik, topqirlik, farosatlilik va hokazolar takomillashib boradi. Shuningdek ularda ijtimoiy hoholatlar, voqelikka, axloqiy qoidalarga qiziqish, ularni amalga oshirishga intilish tobora kuchayadi.

Psixologlarimizning tadqiqotlari shaxs hayot tajribasini egallashda unda o'zligini anglash vujudga kelishini ko'rsatadi. Shaxsiy hayotning mazmunini anglash, aniq turmush rejalarini tuzishi, kelajak hayot yulini belgilash shular jumlasidandir. Talaba atsa sekin mikroguruhning notanish sharoitlariga ko'nikib boradi, o'zining va majburiyatlarini bila boshlaydi, shaxslararo munosabatniig yangicha ko'rinishini o'rnatadi, turmushdagi ijtimoiy rollarni amalda shaxsning o'ziga ko'rishga intiladi. Ulardagi rolning xis-tuygular voqelikka muayyan yundashishga birmuncha xalaqit beradi. Chunki ular turmushdagi yutuqlar va muvoffatsiyatlarining ijtimoiy-psixologik ildizlari nimadan iborat ekanligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lmaydilar.

Yosh fiziologiyasi va psixologiyasi fanlarida turejagan materiallar taxlilidan ko'rinadiki, talaba 17—19 yoshda xam o'z xulqi va bilish qobiliyatini ongli boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmaydi va shunga ko'ra xulq motivlarining asoslanmagani, uzoqni ko'ra olmaslik, ehtiyotsizlik kabi fllar ro'y beradi. V. T. Lisovskiyning fikricha, 18—20 yoshlarda ayrim salbiy xatti-harakatlar kega tashlanadi. Mazkur yoshda xoish va vvtilishning rivojlanishi iroda va xarakterdan ancha ilgarilab ketadi. Bunda odamyang hayotiy tajribasi alhida rolq ynaydi, chunki talaba shu tajriba etishmasligi natijasida nazariya

bilan amaliyotni, fantaziya bilak reallikni, romantika bilan ekszotikani, haqiqat bilan illyuziyani, orzu bilan xohishni, optimizm bilan qat'iylikni aralashtirib yuboradi.

Talabalik yillarida yoshlarning hayoti va faoliyatida o'zini o'zi kamolotga etkazish jarayoni muhim rol o'ynaydi, lekin o'zini boshkarishning tarkibiy qismlari (o'zini – o'zi tahlil qilish, nazorat yotish, baholash, tekshirish va boshqalar) ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ideal (yuksak, bartaror, barkamol) «men» bilan taqqoslash orqali o'zini – o'zi boshqarishning tarkibiy qismlari amaliy ifodaga ega bo'ladi. Talabaning nuqtai nazaricha, ideal «Men» ham muayyan me'zon asosida etarli darajada tekshirib kurilmagan, shuning uchun ular goho tasodifiy, gayritabiiy his etilishi muqarrar, binobarin, real «Men» ham shaxsning aqliy bahosidan ancha yirokdir, talaba shaxsining o'tqarmillashuvida bunday o'zbeki qaralama- qarshilqlar o'z shaxsiyatiga nisbatan ichki ishonchsizlikni, ishga nisbatan salbiy munosabatni vujudga keltiradi. Jumladan, o'quv yili boshida talabada ko'tarinki kayfiyat, oliy o'quv yurtiga ko'rganidan zavq-shavq tuygusi kuzatilsa, ta'limning shart-sharoiti, mazmuni, mohiyati, kun tartibi, muayyan qonun va qoidalari bilan yaqindan tanishish natijasida uning ruhiyatida keskin tushkunlik ro'y beradi.

Yuqorida aytilgan ichki va tashti vositalar, omillar ta'siri oqibatida uning ruhiy dunyosida umidsizlik, ruhiy parokandalik kayfiyati, ya'ni itsiqlolga ishonchsizlik, ikkilanish, adiksirash kabi salbiy is-tuygular namoyon bo'ladi. Bizningcha, oliy maktabda tarbiya ishlarini rejalashtirishda, ta'lim jarayonida talabaga o'ziga xos munosabatda bo'lish mazkur davrning muxim sharoitlaridan biridir.

Yuqorida aytilganlardan qat'iy nazar, yigit va qizlarni oliy o'quv yurtiga qabul qilishda ularda o'z kuchlari, qobiliyatlari, aql-zakovatlari, ichki imkoniyatlari va irodalariga qat'iy ishonch bildiradi. Ana shu ishonch o'z navbatida to'laqonli hayot va faoliyatni uyushtirishga umid his-tuygusini vujudga keltiradi. O'spirinlikning ikkinchi davri hulqqa, voqelikka baho bo'qishda imkoniyatidan tashqari talab qo'yish va qat'iylik xususiyati bilan farqlanadi. Shuning uchun talabalar har doim prinqipial bo'la olmaydilar. Ba'zan qat'iyatlilik kattalarga salbiy munosabatga ham aylanadi. Talabalarning o'qituvchi tavsiyalarini inkor qilishi ko'pincha nizolarni keltirib chiqaradi.

B. G. Anan'ev rahbarligida o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida ma'lum bo'lishicha, Talabalar kamolot topishning jinsiy va neyrodinamik xususiyatlari ularning aqliy imkoniyatlarini to'la ishga solish va sermahsul o'quv faoliyatini tashkil qilish uchun muhim imkoniyat, shart-sharoit yaratadi.

Yu. A. Samarinning ta'kidlashicha, yoshlarning kamol topishida har xil ijtimoiy-psixologik xususiyatli o'ziga xos qaralama-qarshiliklar, ichki ziddiyatlar mavjud bo'ladi. Ularning moddiy jihatdan ota-onaga, oliy o'quv yurti ma'muriyatiga bogliqligi iqtisodiy ziddiyatni keltirib chiqaradi. Bu xol talabalarning xoxishlari bilan mavjud imkoniyatning nomutanosibligi tufayli sodir bo'ladi.

Odatda talabalar 2 va 3 kurslarda oliy o'quv yurti va mutaxassiskni nima uchun tanlagani haqida yana jiddiy o'ylaydilar. Mazkur yosh davrida o'zini boshqarishning tarkibiy qismlari, ijodiy tafakkur, muayyan hayotiy tajriba o'lashtirilgan bilimlarni tartibga solish asosida his tuygular, qarashlar, axloqiy qadriyatlar, o'zligini anglash va barqaror e'tiqod shakllanadi. Talaba xukm va xulosa chiqargach, o'z xatti-harakatida qat'iy turib ularni himoya qiladi, u hayotning turli sohalari bo'yicha har xil darajadagi ko'nikma va malakalarga nazariy bilimlar ijtimoiy-psixologik tushunchalarini amaliy faoliyata tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

B. G. Anan'ev rahbarligidagi tadqiqotchilar jamoasining fikricha, 18—20 yosh pallasida fiziologik imkoniyatlar yuksak darajada rivojlanadi. Organizmning tashqi ta'sirga javobi, qon bosim optimal darajasi ortadi, qon kislorod bilan to'yinadi va hokazo. Insonda o'quvlilikning qulay imkoniyati vujudga keladi. O'quv insonning axborotlarni qabul qilish, eslab qolish va xotirada saqlash qobiliyatini bildiradi. Keyinchalik insonda psixik funktsiyalarning dinamikasi, o'quvlilik imkoniyatlara sira pasaymaydi. Odamning etuklik davri quyidagi qonuniyatlar bilan farqlanadi: 1) turli funktsiyalarning rivojlanishi bir tekis va bir vaqtda amalga oshmaydi (bir bosqichda xotira, boshqa bir bosqichda tafakkur); jadal sur'at bilan o'sadi; 2) yoshga qarab turli funktsiyalar o'zaro bogliq muvofiqlashgan xususiyat kashf eta boshlaydi; 3) etuk inson aqlining funktsional o'sish darajasi yosh evolyutsiyasining har xil bosqichida etarli darajada yuqori bo'ladi; 4) mazkur funktsiyalar dinamikasida hech qanday keskin pasayish bo'lmaydi; 5) etuklik davrida o'quvlilik kamaymaydi.

TALABALAR TAFAKKURINING XUSUSIYATLARI

Talabalik yillarida yoshlar biologik jihatdan barkamollik, ijtimoiy nuqtai nazardan etuklik, jismoniy baquvvatlik bosqichiga ko'tariladi. Ammo ilk o'spirinlik (16—17 yoshli)ning ayrim bolalarga

xos xulq-atvorning tashqi ifodalari, romantikasi ma'lum davrgacha o'z ta'sirini o'tkazib turadi. Oliy maktabdagi datslabki sinov (birinchi sessiya) davridaek talaba turmush faqat romantikadan iborat emasligiga, balki izlanish, irodaviy zo'r bo'qish, aqliy mehnat zahmati orqali O'zgu niyatga etishish mumkinligiga iqrora bo'ladi. Favquloddagi taassurotdan, ijtimoiy sinovdan keyin o'qishga, turmushga, insonlarga nisbatan munosabatni jiddiy ravishda o'zgaradi, narsa va hohodisalarga, ijtimoiy hohodatlarga voyaga etgan katta kishilardak muomala qilishga, voqelikni to'g'ri, okilona (adekvat) aks ettirishga, tushunib etishga harakat qiladi.

Yuqori sinf o'quvchisi davrida vujudga kela boshlagan tafakkurning mutsaqillik, teranlik, ixchamlik, tashabbuskorlik, tanqidiylik sifatleri kun sayin takomillashib, yangi-yangi belgi va alomatlar bilan boyib boradi. Talabalarda o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini boshqarish kabi aql-zakovatning muhim jihatlari taraqqiyotning yangi yuksak bosqichiga ko'tariladi.

Talabalarda tafakkurning rivojlanishida, ilmiy dunyoqarashning shakllanishida umumta'lim va ijtimoiy fanlar, jumladan, tarix, falsafa, mantiq, iqtisodiy nazariya asoslari, madaniyatshunoslik, adabiyot, etika, etsetika, psixologiya, pedagogika kabi o'quv predmetleri muhim rol o'ynaydi. Talabalar tafakkuri, asosan, o'qish, amaliy mashg'ulot va mutsaqil bilim olish faoliyatlarida jadal va uzluksiz ravishda rivojlanadi. Goho ma'ruza jarayoni ulardan reproduktiv (o'zlashtirilgan bilimlarga asoslangan) tafakkurni taqozo etsa ham, lekin seminar mashg'ulotlari, mutsakil topshiriqlar, laboratoriya praktikumi produktiv (ijodiy) fikr yuritish faoliyatini talab qiladi. Har ikkala ta'lim shakli ham talabalar aqliy mehnati, maqsadga yo'naltirilgan va muvofilashtirilgan diqqati yordami bilan amalga oshadi.

Oliy maktabdagi mutsaqil ishlarng barchasi: konspekt tuzish, referat, annotatsiya, te'zis, seminarga hozirlik, kurs va diplom ishlari talabadan mutsaqillikni, ijodiy yondashashni, (kreativlikni) muammoli holatni, murakkab pedagogij vaziyatni hal qilishni taqozo qiladi. Davlat o'quv rejasida ko'rsatilgan, datsurda ko'zda tutilgan materiallar va ilmiy ma'lumotlarni o'zlashtirish bilim-saviyani kengaytirish bilan qanoat hosil qilmasdan, balki ularni tushunish, anglab etishni talab qiladi, bu esa bevosita tafakkurning funktsiyasidir. Xotira bisotidagi bilimlarni izchil ravishda tartibga keltirish, esga tushirish, ular ichidan eng muhim jihatlarni ajratish, o'zaro taqqoslash, turkumlarga kiritish, umumlashtirish bilish jarayonining aqliy yo'li bilan, ya'ni tafakkur yordami bilan amalga oshiriladi.

Ijtimoiy-falsafiy kurslarini o'rganish davomida moddiy borliqdagi narsa va hohodisalar o'rtasidagi murakkab ichki bog'lanishlar, aloqalar va ijtimoiy turmush konuniyatlari yuzasidan chuqur nazariy metodologik, ilmiy-uslubiy xususiyatdagi bilimlar o'zlashtiriladi. Ayniqsa, ushbu davrda diskursiv (ijodiyot va haqiqat me'zoni uchun bahsda yuzaga keluvchi) tafakkur turi talaba uchun omilkor aql-zakovat quroli vazifasini bajaradi.

Ta'lim jarayonida fikr yuritish operatsiyalaridan unumli foydalanish evaziga har qanday murakkab bilimlarni egallash imkoniyati vujudga keladi. Talabalar tafakkur shakllari (tushuncha, hukm, xulosa chiqarish)ning funktsional va operatsional jihatlari bilan yaqindan tanishadilar, shuningdek ulardan mutsakil foydalanish uchun barcha intellektual re'zervlarni (aqliy zaxiralarini) ishga solishga harakat qiladilar. Hukm chiqarishning barcha (yakka, xususiy, umumiy, ziddiyatli, faraziy, inkor) ko'rinishlardan o'quv va mutsaqil bilim olish faoliyatlarida foydalanish shart-sharoitlari tugiladi. Xulosa chiqarishning induktiv (xususiydan umumiyga fikrning yo'nalganligi) va deduktiv (umumiydan xususiy hollarga fikrning qaratilganligi) yo'llardan muayyan tarzda bilish faoliyatida qo'llashga intaladilar. Tushunchalar (yakka, xususiy, umumiy, yaqqol, mavqum, to'rejama) moxiyatini anglagan holda ma'lumotlarni egallash bilimlarning barqarorligini ta'minlaydi. Bu narsalarnang barchasi tafakkurni rivojlantirishga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Oliy ta'lim uzluksiz ravishda ijodiy tafakkurni talab qiladigan, muammoli xususiyatdagi topshiriq va masalalar tizimidan iboratdar. Xar bir ma'ruza, seminar mashguloti, mutsakil topshiriqlar, laboriya ishlari ham muammoli vaziyat, holatning tashkibiy qismlaridan tuzilgan bo'ladi. Ularni hal qilish (echish, bajarish) ijodiy izlanishni vujudga keltiradi. Chunki muammoli holatgacha davr, muammoli vaziyat, muammoli vaziyatdan keyingi aqliy jarayonlar ham talabadan ijodiy qidiruv, tadqiqot faoliyatni taqozo etadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, odatda usullarning ko'pchiligi birdaniga asta-sekin, «buzib-tuzatab», qayta qurish, tarkibini yangidan tuzish, ko'rgazmali materialdan matnli (mantiqiy) materialga o'tishi kabi ko'rinishlari mavjuddir. Talabalarda o'quv faoliyatiniig usulini tarkib toptirish quyidagicha amalga oshiriladi.

Xotira tushunchasini turli nuqtai nazardan qarash mumkin, chunonchi, u bilish jarayoni, produktiv yoki reproduktiv mnemik (lot. — xotira) faoliyat, amaliyotga zarur bilimlar majmuasi, xotira — bu ko'nikma, malaka va odatlar yigindisi; umumlashgan obrazlar tuplami, grammatik termin, fenominal xotiralilik shaxs sifati tariqasida va hokazo.

O'quv faoliyatining ushbu usulini mutsaqil topshiriq bajarishga, ya'ni «Tafakkur» tushunchasiga ko'chirish imkoniyati quyidagi tarzda namoyon bo'ladi: tafakkur— bu bilish jarayoni, fikr yuritish faoliyati, prognoz qilish, anglashilgan bilimlar, muloqot negizi, grammatik termin, aql sifati, zehni o'tkirlilik, shaxs sifati kabi tasavvur qilish mumkinligini ta'kidlab o'tiladi.

Yuqoridagi mulohazalarga qaramasdan, talabalar tafakkurida sub'ektiv-shaxsiy xususiyatga ega bo'lgan zaif jihatlar mavjuddir. Fikr yuritish faoliyatini nazorat qilishda qator kamchiliklarga yul qo'yiladi, masalan, faoliyat natijasini tekshirish sifatidagina qo'llaniladi. Ularning aqliy faoliyatida xatti-harakat yoki bilim sifatini baholash va o'zini baholashda ham, voqelikni baholashda ham voqelikni oqilona, to'g'ri aks ettirish jarayonida ilatlar ko'zga tashlanadi. Narsa va hodisalr xususiyati yoki qonuniyati ko'pincha orttirib baholanadi, ba'zan pasaytirib baholash hollari ham namoyon bo'ladi.

Ta'kidlab o'tilgan nuqsonlar, qusurlarga qaramasdan, talabalar tafakkuri ilk o'spirinlik yosh davridan ham sifat, ham mazmun, ham ko'lam jihatidan keskin tafovutlanadi. Bu fikrlar psixologlar tomonidan to'rejagan miqdoriy ma'lumotlar bilan allakachonlar tasdiqlangan. Shunday qilib, muayyan bir soxaning yosh mutaxassis kishisi — talaba yuksak aql-zakovat egasi, o'quvli teran fikrli inson, iymonli, diyonatli shaxs, aniq dunyoqarashga; mutsakam e'tiqodga ega bo'lgan ziyoli, milliy mafkuraning jonkuyari, targibotchisi sifatida ijtimoiy katta hayotga yo'llanma oladi.

Talaba-o'spirinlik, ilk yoshlik davri o'zining mahsuldorligi, refleksiv (anglashilganlik, ongli rejalashtira olishlik) xususiyati bilan boshqa yosh davridagi odamlardan o'ziga xos ravishda ajralib turadi. Talabalar yillari ijodiy izlanishlar, aql-zakovat zahiralari ishga sola bilish, aqliy qobiliyatni safarbar qilish imkoniyatlariga ega bo'lgan shaxsning etuklik davri hisoblanadi. Xullas, ushbu yosh davrda tafakkur sermahsul, sermazmun bosqichga ko'tarilib, yaratish, ixtiro, ijod va kashfiyot qilish arafasida turadi. Talabalar mutaxassislikka xos bo'lgan o'quv predmetlari, fan asoslarini egallash faoliyatida ijodiy mahsulot bo'qish uchun tinimsiz harakat kiladilar. Ularning bilishga, bilim olishga undovchi mayllari turgun, mutsahkam va barqaror qiziqishga aylana boradi, badiiy ijodiyot va ilmiy-tadqiqot bobida datslabki O'zgu-niyatlari, orzularini ushatishga intiladilar. Jumladan, filolog yoki jurnalits talbalar badiiy ijod bilan, tabiiy-matematika fan sohasidagilar esa kuzatish va tajriba o'tkazish bilan, tarixchilar arxeolog talabalar ijtimoiy turmush solnomalarining echish bilan, psixologlar korxonalar va maktablarga amaliy yordam ko'rsatish bilan shugullana boshlaydilar. Xatto talabalar o'zlarining aqliy mehnati mahsullari bilan olimpiada, ilmiy amaliy anjumanlarda, ixtirochilar va ratsionalizatorlar konkurs-tanlovlarida muvaffatsiyatli qatnasha oladilar. Bularning barchasi tafakkur yordami bilan chiqariladi, moddiy borlikni yanada aniqroq ifodalash, yaratish faolayatlari faol katnashish uchun intilish, muammoli holat va vaziyatlarni hal qilish (echish) jarayonlarining mahsuli sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi zamon talabalarining ijodiy tafakkur orqali vujudga keltirgan badiiy asarlari, maqolalari, ilmiy chiqishlari, ishlab chiqarishga taqdim qilingan ratsionalizatorlik takliflari xalq xo'jaligini yuksaltirish, mutsaqil respublika fan va texnikasini ravojlangan mamlakatlar darajasiga ko'tarish uchun xizmat qilmoqda. Eng yuksak saviyada tayyorlangan diplom ishlari va loyihalari talabalar ijodiy tafakkurini namunalari hisoblanadi, shu boisdan ularning ilmiylik darajasi yuqori bo'lganlari nomzodlik dissertatsiyasiga taqdim qilinmoqda.

Oliy maktabda o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni ishlab chiqarishga, amaliyotga, turmushga tatbik etish, el o'rtasida yoyish, targ'ib qilish ham talabalik davriga xos xususiyatlardan biridir. Nazariy va amaliy, ijodiy va diskursiv, fazoviy tafakkur bilan qurollangan talabalar omma o'rtasida ilm-ma'rifatni yoyish ishida faol ishtirok qilmoqdalar.

Talabalar narsa va hodisalar, voqelikni to'g'ri, oqilona, omilkorlik bilan aks ettirishda, ijtimoiy hayot talabi va ehtiyojlarini anglash, ongli ravishda fikr yuritish faoliyatini tashkil qilish va boshqarish imkoniyatiga egadirlar. Ularda ta'lim jarayonida tafakkurnint diskursiv va refleksiv sifatlarini shakllantirish ilmiy, ijodiy tafakkurni vujudga keltiradi. Buning uchun ularni mutsaqil bilim olish faoliyatini to'g'ri uyushtirish va boshqarishga o'rgatish yuksak samaraning kafolatidir.

O'QITUVCHI VA TALABALANING HAMKORLIGI – TA'LIM SAMARADORLIGINING MUHIM OMILI.

Oliy maktabda hamkorlikdagi faoliyatning shakllanishi, uning ijtimoiy psixologik jihatini tashkil qilish har qanday faoliyatni, shu jumladan, o'quv faoliyatini tashkil qiluvchi tarkibiy kismlarini o'rganish so'nggi o'n yillarda amalga oshirila boshlandi.

B. F. Lomov faoliyatini tahlil etishning umumiy psixologiyada qabul qilingan sxemasini ko'rib chiqib, bu faoliyatni bajaruvchi shaxsning boshqa shaxslar bilan hamkorligi boshqacha qurilishi zarurligini ta'kidlab o'tadi. Yakka shaxs faoliyatining psixologik tahlili faoliyat sub'ektining boshqa odamlar bilan aloqasini mavhumlashtiradi. Lekin bu mavhumlashtirish nihoyatda muhimligidan qat'iy nazar, o'rganilayotgan hodisalarni bir tomonlama yoritish imkonini beradi. Uqituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatiga doir tadqiqotlarda, asosiy e'tibor halqaro munosabatning rivojlanishini o'rganishga qaratiladi, o'qitishni guruhli tashkil qilish jarayoni bayon qilinadi.

A. V. Petrovskiy jamoadagi shaxslararo munosabatlar faoliyatdan kelib chiqishini o'rganib, ta'lim jarayonida o'qituvchining o'quvchilar bilan hamkorligini tashkil qilish faqat ularni muloqotga extiyojini qondirish vositasi emas, balki o'quv materialini o'zlashtirishning xam vositasi ekanligini ta'kidlagan edi.

Yuqoridagi fikrlarga qaramay o'zlashtirishning turli bosqichlarida o'qituvchi bilan o'quvchilarning turlicha hamkorligi qanday uyushtirilishi masalasi hal bo'lgan emas. Binobarin, o'qituvchida o'quv faoliyatini hamkorlik asosida tashkil qilish ko'nikmalari yuqligi qator muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Hamkorlikdagi mahsuldor faoliyatni psixologik jihatdan o'rganishni V. Ya. Lyaudis boshchiligidagi psixologlar guruhi amalga oshirdi. Uning asosiy maqsadi yangi psixik fazilatlarining shakllanishida o'qituvchi bilan talaba hamkorligining rolini ifodalash edi.

Ushbu nazariyaga binoan, o'quv faoliyatining shakllanishi fan asoslarini egallashtirishning negizi emas, balki shaxsning ijtimoiy madaniy qadriyatlarini egallash jarayonidir. Mazkur nazariya asosida vaziyatni talaba shaxsining rivojlanishidagi «yaqin kamolot zonasinigina emas, balki «Pertseptiv rivojlanish zonasi»ni ham yaratadigan yo'sinda loyihalash mumkin.

V. Ya. Lyaudis o'quv vaziyati tartibidagi 4 ta o'zgaruvchi holatni ko'rsatadi: a) tashkiliy o'quv jarayonining mazmuni (uning xususiyati, o'quvchi o'zlashtiriladigan faoliyat datsuri, egallanadigan bilim faoliyatining turlari); b) ta'lim mazmuni va o'quv faoliyati usullarini o'zlashtirish: bir bosqichdan boshqasiga o'tish tartibi; v) talaba bilan o'qituvchining o'zaro ta'siri va hamkorlik sitsemasi; g) ta'limdagi o'zgaruvchan omillarning o'zaro aloqasini takomillashuvi o'zaro hamkorlikning muhim omili va talabalarning o'zaro munosabati xususiyatini belgilovchi asos o'qituvchi bilan talaba hamkorligining shakllaridir. Hamkorlikdagi o'quv faoliyati o'qituvchi va talaba munosabatlarining va birgalikdagi xatti-harakatlarining alohida turidirki, u o'zlashtirish ob'ektini, bilish faoliyatining barcha qismlarini qayta qurishni ta'miyalaydi.

Hamkorlikdagi o'quv faoliyatining maqsadi o'zlashtiriladigan faoliyat va birgalikdagi harakatlar, munosabat va muloqotning boshqarish mexanizmi yaratishdir. Hamkorlikdagi faoliyatning mahsuli talabalar mutsaqil oldi ilgari su'rgan yangi g'oyalar va o'zlashtirilayotgan faoliyatning mohiyatiga bogliq maqsadlar va sheriklikda shaxs pozitsiyasini boshqarish itsaklarining yuzaga kelishidir. Hamkorlikdagi faoliyat usuli deganda, o'qituvchi bilan talabaniig birgalikdagi hatti-harakatlarining sitsemasini tushunish kerak. Bunday xatti-harakatlar o'qituvchining talabaga kursatadigan yordamidan boshlanadi; talabalarning faolligi atsa-sekin o'sib borib, butunlay ularning o'zi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatiga aylanadi: o'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi munosabat esa sheriklik pozitsiyasi xususiyatiga ega bo'ladi.

Psixologiya fanida hamkorlikning sakkizta shakli mavjud, ular quyidagilardan iboratdir: 1) faoliyatga kirish; 2) mutsaqil harakatlar Z) o'qituvchi harakatni boshlab beradi va unga talabani jalb etadi; 4) taqlid harakatlari 5) madad harakatlari (o'qituvchi talabaga orqali maqsadni va uziga O'qishish usullarini tanlashda yorlam beradi hamda oxirgi natijani nazorat qiladi); 6) o'zini o'zi boshqarish harakatlari 7) o'zini o'zi boshqaruvchi harakatlar; 8) o'zini uyushtiruvchi harakatlar. Hamkorlikdagi faoliyat usullari birgalikdagi xatti-harakatlar shaklida namoyon bo'lib, unga muloqot davrlari singari mazkur faoliyatning oddiy birliklari deb qarash mumkin. Birgalikdagi harakat davri qo'yiladigan ushbu almashuvni o'zichiga oladi: o'qituvchi harakat boshlaydi, talaba uni davom ettiradi yoki tugallaydi.

Oliy maktablarda hamkorlikdagi faoliyatning xususiyatlarini o'rganish va tajribalarda sinab

ko`rishniig asosiy maqsadi talabalariniig bilimlarni o`zlashtirishdagi qiyinchiliklarning sabablarini va manbalarini tadqiq etish hamda ta`lim jarayonida yoki hamkorlikdagi faoliyat bilimlarni o`zlashtirish samaradorligini oshirishning asosiy omillarini aniqlashdan iboratdir. V. Ya. Lyaudis va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlari o`qituvchi bilan talabaning hamkorlikdagi mahsuldor faoliyati o`rganilgan.

Yuqorida ta`kidlab o`tilgan tadqiqotlarda hamkorlik faoliyati uchta o`zaro bogliq fazadan iborat ekanligi ko`rsatilgan, jumladan birinchi faza — faoliyatni egallash» deb nomlangan bo`lib, u o`z ichiga Ushbu hamkorlik shakllarini qamrab olgandir: 1) o`qituvchi bilan talabalar o`rtasidagi birgalikda amalga oshadigan harakatlarni turkumlarga ajratuvchi tizim; 2) talabalarining o`qituvchi faoliyatiga taqlid qilishga asoslangan harakatlari yigindisi; 3) talabalar tomonida qo`llab-quvvatlanadigan harakatlar majmuasi hamkorlik faoliyatining ikkinchi fazasi — talabalarin o`qituvchi faoliyatiga muvofiqlashtirilgan hamkorli harakatlari majmuasi; 4) talabaning o`o`z - o`ziniboshqaruvchi harakatlari tizimi; 5) talabalarining uz o`zini qo`zgatuvchi xatti-harakatlari va boshqalar. hamkorlik faoliyatining uchinchi fazasi — hamkorlik faolayatidan yangi bir taraqqiyot bosqichiga ko`tarilish, takomillashishda, shuningdek, o`qituvchi bilan talaba amkorligi sheriklik darajasiga o`sib o`tishda o`z ifodasini topadi.

Bizningcha juda kam tadqiq etilgan faza — bu uchinchi faza hisoblanadi. Lekin ayrim tadqiqotlarda sheriklikni amalga oshirish to`g`risida mulohaza yuritilgan bo`lsada, biroq uning tub mohiyati o`ziga xos xususiyatlari, bosqichlari, manbalari, psixologik mexanizmlari to`g`risida tugal fikrlar bildirilmagan. Ana shundan kelib chiqan holda, quyida gipotetik xususiyatga ega bo`lgan muammoli holatlarni o`rtaga tashlash maqsadga muvofikdir. Bizningcha, uchta fazaning oxirgisi taxminan mana bunday harakatlar tariqasida ko`rinishga ega bo`lishi mumkin 1) teng huquqlilik asosiga qurilgan umumiy hamkorlikdagi o`qituvchi bilan talabaning faoliyatga madad beruvchi (o`zaro ta`sir o`tkazish negizida ijodiy izlanishlar namoyon etilsa) harakatlar; 2) ma`naviy harakatlar (o`qituvchi va talabaning hamkorlik zaminiga qurilgan xarakteratlari muayyan ma`no, mohiyat, intellektual harakat, angLashilgan turtki, maksadga yvaltirilgan vosita, o`zaro mohiyatii, oydinlashtiruvchi munosabat kabilar); 3) interaktiv harakatlar (o`o`zaro fikr almashishga, o`o`zaro fikrlarnq tldirishga, go noverbal, gho verbal ta`sir o`tkazishga qaratilgan harakatlar majmuasi); 4) predmetli refleksie jharakatlar (bu erda mana bunday holat yotishi ehtimoldan holi emas; birinchadan, har qanday hamkorlak muayyan narsaga qaratilgan sodda va lo`nda iktellektual harakatlardan tuzilishi; ikkinchidan, aniq muammolar ko`p o`quv predmetlari moxiyati bog`liq harakatlar zanjiriga yo`nalgan bo`lishi mumkin, lekin har bir intellektual harakat anglashilgan, o`z - o`zini boshqarishga buysundirilganligi bilan ajralib turishi lozim); 5) interaktiv harakatlar (o`zaro ta`sir asosiga kurilgan intellektual harakatlar shunchaki ta`sir, turtki vazifasini bajarish bilan cheqlanib qolmasdan, balki hamkorlik sub-qektlarini ijodiy izlanishga yo`naltirish noma`lum holatni ochishga, kashf etashga ko`mak beruvchi nazariy-aqliy mulohazalarda ifodalanishi mumkin); 6) ma`naviy reflektiv harakatlar (reflektiv tushunchani anglaganlik darajasini bildirgan ma`noda qo`llaniladi, shuning uchun bu o`rinda mantiqiy izchillikdagi harakatlar, aqlni peshlash mashqlari tarzida ishtirok etib, muayyan aqliy ko`lamni o`zida aks ettirish lozim, bu erda harakatlar ortiqcha operatsion belgilardan xalos bo`lishi shart. Shu narsani alohida ta`kidlab o`tish kerakki, yuqoridagi fikrlarni empirik materiallar asosida chuqurroq o`rganish maksadga muvofiq hamkorlik faoliyatini amalga oshirish va uni qayta quyish jarayoni bir qator qonuniyat tarzidagi va o`ziga xos psixologik xususiyatlar tariqasidagi holatlar, mexanizmlar, aloqalar shaklida namoyon bo`lishi mumkin. Jumladan, o`qituvchining hamkorlik faoliyatini yuksak darajada boshqarish paytida talabalarda fan asoslarini egallash, amaliy ko`nikmalarni o`zlashtirish birmuncha engil kechadi. Shuningdek, o`quv faoliyatining operatsional predmetli jabhasini uyushtirish, idora qilish, uni qayta qurish quyidagi tartibda namoyon bo`lishi mumkin: a) operatsional ijroi harakatlar; b) orientir qidiruv harakatlari; v) bilishga oid orientir nazorat korreksion tizimi kabilar muayyan davrgacha talabalarni hamkorlik faoliyatining ma`noviy, tashkiliy jarayoniga taalluqli hamkorlikning tarkibiy qismlarini boshqarish funktsiyasini bajarib turadi. Bu borada harakatniig ijtimoiy-tashkiliy, motivatsion-ma`naviy, predmetli tashkiliy qismlari faol ishtiryok qiladi hamda Hamkorlik faoliyatini masuldor bo`lishga ta`sir o`tkaeadi, Ikkinchidan, o`qituvchining talabalarga tavsiya qilingan, mo`ljallangan, goho sinab ko`rilgan hamkorlik o`quv faoliyati shakllaridan atsa-sekin .o`qituvchining bevosita rahbarligida o`z - o`ziniboshqarishga,ya`ni reflektiv faoliyat darajasiga sib tish jarayoni yuzagakeladi. hamkorlik faoliyat natijasida uning ishtirokchilari, sub`ektlari shaxsvy pozitsiyasini ilgari surishda, hamkorlik qatnashchisi tariqasida o`z o`rnini topish uchun intilishda dinamik holat ko`zga tashlanishi mumkin. qatnashuvchilar

hamkorlik faoliyatini shunchaki dialogik ishtirokchisi rolidek uning teng huquqli, real pozitsiyaga ega bo'lgan muomala, munosabt, faoliyat sub'ektiga aylanadi. hamkorlik faoliyatida talaba bilan o'qituvchining o'zaro ta'sirini (interaktivlik) baholashning divergentlik negizidan konvertgentlik pozitsiyasiga o'tishi kuzatiladi. Hamkorlik faoliya to'yni takomil bosqichiga o'tish jarayonida o'zaro o'tkazish harakatini baholashda o'z – o'zini baholash darajasiga katarilishi sodir bo'ladi. Ushbu jarayon hamkorlik dinamikasidan dalolat beradigan eng muxim omillardan biri vazifasini o'taydi. Biroq mazkur mulohazani yanada chukurroq -o'rganish takozo qilinadi. Tajribada olingan natijalarni psixologik sifat jihatdan tahlil qilish hamkorlik faoliyatini boshkarish (o'qituvchi, o'qituvchi bilan talabalar, talabalarning o'zaro boshkaruvi) bosqichlari va ularning xususiyatlari, ishtirokchilarni idora qilish imkoniyatlari, ularni boshqarish ulushi turlicha ekanligini tasdiqladi. Mazkur o'zgarishlar quyidagi izchillikda namoyon bo'lishi mumkin: 1) predmetli monologik ijro etish darajasi; 2) ma'naviy yoki harakatlarni o'zaro almashish ko'rsatkichi; 3) interaktiv harakatlar almashish darajasi; 4) ma'naviy harakat ma'nosini dialogik tareda almashish bosqichi; 5) intrasituativ integratsiyasi, yoinki boshqacha so'z bilan aytganda, faoliyat vaeyatning yaxlitligi e'tiborga olingan hamkorlvk faolayati harakatlari vaboshqalar. Lyusher, Spilberger-Xanan shkalalari, Fidler metodikasi, V. Ya. Lyaudis va boshkalarning diagnotsik metodikalari yordamida olingan natijalar guruhlarini tuzish, ular o'rtasida hamkorlik joriy qilishda talabalarda be'zovtalanish, o'z-o'zini boshqarish, guruhdagi psixologik muhit va shaxslararo munosabat xususiyatlari, xossalari, negizlari mexanizmlari, hamkorlik sub'ektlariga ta'sir o'tkazuvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillarni ochib be'qishga xizmat qiladi Oliy maktab ta'limi samaradorligini oshirishda, hamkorlik faoliyatini yo'lga ko'yishda talabalarning aqliy imkoniyatlari, zaxiralari, umumiy saviyasi, bilimlarni o'elashtirish darajasi, o'qishga munosabati, o'z – o'zini boshkarish darajasini tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega. Talabalarda uchraydigan ijtimoiy-psixologik, bilishga oid kasbiy qiyinchili ularning oldini olish uchun ta'kidlab tilgan me'zonlarini aniqlash ko'zlagan maqsadni amalga oshirish sari etaklaydi. Chunki o'qituvchi bilan talabalarning hamkorlik faoliyati ko'lami kancha keng bo'lsa, bilimlarni o'elashtirish darajasi shunchalik yuqori, o'z-o'zini boshqarish asa puxta egallangan bo'lada. O'zarota'sir o'tkazish doirasi kanchalik keng bo'lsa, u holda muammolarni hal qilish jarayoni shunchalik to'z amalga oshiriladi:

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimov I.A O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.:«O'zbekiston» 1995.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 1997.
3. /afarov A.Z., Yugay A.X. Pedagogika amaliyoti. Toshkent-2002.
4. Davaetshin M.G., To'ychieva S.M. Umumiy psixologiya, Toshkent 2002.
5. Davaetshin M.G. Zamonaviy maktab -o'qituvchisi psixologiyasi. -Toshkent 1998.
6. Herbakov A.I. Yosh psixologiyasi va pedagogika psixologiyadan praktikum. Toshkent, 1991.
7. Psixologiya. qisqacha izog'li lug'at .Toshkent, 1998.
8. /oziev E./. Psixologiya. Toshkent, 1994.
9. Krutetskiy V.A. Psixologiya obucheniya i vospitaniya shkolnikov. M.1976
10. Kazakov V. G. Psixologiya. M.1989.
11. Yosh va pedagogik psixologiyadan praktikum. T.1991.
12. M.G. Davaetshin, Sh.Do'stmuhamedova, M.Mavlanov, S.To'ychieva. «Yosh va pedagogik psixologiya» o'quv metodik qo'llanma Toshkent 2004 yil
13. Umumiy psixologiya. P.I., Ivanov.
14. Psixologiya V. Karimova. Toshkent. 2002y.
15. Psixologiyadan ma'rozalar matni. Toshkent. 1999y
16. Umumiy psixologiya M.V. Voxidov. Toshkent 1992 yil.
- 17 Umumiy psixologiya A.V. Petrovskiy. Moskva 1976g
18. Bolalar psixologiyasi ocherklari P.I. Leventuev. A.A., Askarxujaev.
19. V.Z. Chudnovskiy. M.V. Voxidov. 1964y. Psixologiyadan ma'ruzalar matni toshkent. 1999y.